

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: _____

AVEZOVA FERUZA SULTANBOY QIZI
“ O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI”

Ixtisosligi: 5A610301- Turizm (Xalqaro va ichki turizm)

Turizm magistri akademik darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA ISHI

Ish ko‘rib chiqildi va
himoyaga qo‘yildi.

“Turizm” kafedrası mudiri,

dots. F. Abdullayev

“ ”

2016-y.

IMZONI TASDIQLAYMAN

Ilmiy rahbar

dots. A.S. Sadullayev

KADRLAR BOLLIM BOSH

Ilmiy maslahatchi

prof. S.Salayev

Urganch – 2016

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari

- 1.1. Xalqaro turizm va uning tashkil topish xususiyati
- 1.2. Xalqaro turizm sanoati tasnifi
- 1.3. Xalqaro turizm rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillari

II BOB. O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

- 2.1. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning xuquqiy asoslari
- 2.2. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash bo'yicha xalqaro hamkorlik
- 2.3. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish

III BOB. Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda xalqaro turizmni rivojlanish istiqbollari

- 3.1. O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining zamonaviy holati
- 3.2. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlanishi yo'nalishlari
- 3.3. Mamlakatimizda xalqaro turizm industriasini rivojlantirish istiqbollari

Xulosa va takliflar

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda, butun dunyoda turizm muntazam ravishda ommaviy ijtimoiy hodisaga aylanib bormoqda. Bu o'z navbatida turizmning eng keng tarqalgan shakli xalqaro turizmning rivojlanib borishida namoyon bo'lmoqda. Turizmning jadal sur'atlarda o'sib borishiga asosiy sabab bu insonlarning xordiq chiqarish va mehnat qobiliyatlarini tiklashga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali o'z yashash sharoitlarini o'zgartirishga bo'lgan intilishlarining ommaviy tus olib borayotganligidir. Iqtisodiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, turizmning ahamiyatli va o'ziga xos xususiyati shundaki, u iste'mol talabining yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Bunday talab bitta tovarga emas, balki tovarlar va xizmatlarning butun bir majmuasiga tegishlidir.

Dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro turizm chet el valyutasi kelib tushishi va ish joylari yaratilishining muhim manbai hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, xalqaro turizm ham yuqori daromadlar va ham bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning zamonaviy vositasiga aylandi¹. Deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro turizmni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga egaligi tan olinib bormoqda. Bunga sabab, hozirda turizm sohasi ichki va jahon savdosining stimulyatori rolini o'ynayapti. Ko'plab mamlakatlarda yalpi milliy mahsulotning beshdan bir qismidan tortib yarmigacha bo'lgan miqdori turizm hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xalqaro turizm ijtimoiy-madaniy va xo'jalik-iqtisodiy majmuani faollashtiradi, kishilarning madaniy va ma'naviy hordiq chiqarishini ko'rsatiladigan xizmatlarning miqdori va sifati hamda madaniy xizmat ko'rsatish va hordiq chiqarish tadbirlarining turli – tumanligi bilan yanada boyitadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hozirgi kunda, har qanday mamlakatning madaniyati ushbu mamlakatga tashrif buyuruvchi kishilar oqimining o'sib borishi hisobidan yanada rivojlanib boradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqaro

¹ Ильина Е. Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2007.

turizm o'zidagi imkoniyat va resurslar manbai bilan mamlakatlar madaniyatining yanada boyib borishida muhim rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integrasiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, urf-odatlariga ega bo'lgan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorliklarning umumiy soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan.

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlanishida turistik tashkilotlar va tadbirkorlarning o'rni kelajakda yanada ortib borishi kutilmoqda. Buni «O'zbekturizm» MK faoliyati misolida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda respublikada 865 dan ortiq turistik tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning ish jarayoni Milliy Kompaniya tomonidan nazorat qilinib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizmni rivojlantirishning nazariy muammolari va asoslari Butunjahon turistik tashkilotining ma'lumotlari, V. I. Knorring, V. A. Kvartalnov, I. D. Afanosenko, X. Shvalbe, N. B. Bugarova, K. G. Borisova, V. I. Azar, M. B. Birjakov, L. YU. Remenniy va boshqa chet olimlari ishlarida o'z ifodasini topgan. Respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda xalqaro turizmni rivojlantirishning mintaqaviy muammolari va mavjud imkoniyatlari Respublikamiz olimlaridan G. G'ulomov, G. Nazarova,

A. Taksanov, A. Allabergaenov, A. F. Saidov, T.T Toshmurodov, F. Komilova, A. Norchayev va boshqa olimlarning tatqiqotlarida yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasidagi mavjud barcha turistik resurslarni o'rganish va imkoniyatini belgilash, hamda ulardan xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalanish samaradorligini oshirish orqali uning rivojlanish istiqbollarini belgilash.

Tadqiqotning asosiy vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi:

- ❖ Xalqaro turizm va uning tashkil topish xususiyatini yoritib berish;
- ❖ Xalqaro turizm sanoati tasnifi to'g'risida ma'lumotlar keltirish;
- ❖ Xalqaro turizm rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillarini batafsil tadqiq etish;
- ❖ O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning xuquqiy asoslarini yoritib berish;
- ❖ Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash bo'yicha xalqaro hamkorlik to'g'risida ma'lumot to'plash;
- ❖ O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishni ahamiyatini izohlash;
- ❖ O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining zamonaviy holati xususida ma'lumot keltirish;
- ❖ O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlanishi yo'nalishlarini belgilash;
- ❖ Mamlakatimizda xalqaro turizm industriyasini rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti O'zbekiston respublikasidagi turizm faoliyatida foydalanilayotgan va kelajakda foydalanish mumkin bo'lgan madaniy-tarixiy, sog'lomlashtirish, sport, gastronomik, diniy, rekreatsion, ekoturizm va boshqa turistik salohiyatini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida turizmning rivojlanish imkoniyatlarini xalqaro turizm sohasiga integratsiyalashuvi borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning metodi bir qancha uslub va usullar majmuidan iborat. Tadqiqot davomida analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, sabab va oqibat, zamon va makon, statistik guruhlash, grafik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda turizmni rivojlantirish hamda Vazirlar Mahkamasining ushbu tarmoqni yuksaltirish bo'yicha ishlab chiqqan ko'rsatma va qarorlariga tayanadi.

Tadqiqot ishi «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi va uning mintaqaviy bo'linmalari, Davlat statistika boshqarmasi, Butunjahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlari, xalqaro turizmni rivojlantirishga bag'ishlangan chet el adabiyotlari, hamda ilmiy va kartografik manbalar asosida tayyorlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu ishning natija va xulosalaridan, viloyatlar va respublika darajasida xalqaro turizmni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy-amaliy tavsiyalari, mavjud statistik ma'lumotlari oliy o'quv yurtlari hamda litsey va kollejlarning o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'mak beradi.

Tadqiqot yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarini qo'llash va turizm rivojlanishini yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, ishda quyidagi muammolar o'z yechimini topgan:

- O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari va istiqbollari aniqlandi;
- Mamlakat hududidagi mavjud barcha turistik resurslar hozirgi kundagi holati yoritildi;
- O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro turizmni rivojlantirishning ahamiyati aniqlandi;
- Respublika xalqaro turizm salohiyatini oshirishda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish istiqbollari va yo'nalishlari o'rganildi.
- O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi muammolarni

o'rganishning SWOT tahlili ishlab chiqildi va undagi kamchiliklarni bartaf qilish, hamda tahdidlarni yumshatish borasida taklif va tavsiyalar berildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ilmiy tadqiqot ishi 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining birinchi bobida xalqaro turizmni mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, uning jahon bo'ylab rivojlanish bosqichlari, xalqaro turizm industriyasini tashkil etuvchi kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish va sayr-tomsha sektorlarining faoliyat olib borish jarayoni, shuningdek xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tabiiy va etnik omillarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Ishning ikkinchi bobida O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda xuquqiy asosning yaratilishi, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil topishi, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash bo'yicha xalqaro hamkorlini yo'lga qo'yish, shuningdek xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo'lgan xalqaro rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish va qo'llash, hamda jahonning eng mashxur turistik markazlari rivojlanish tendensiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ishning uchinchi bobida O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishining hozirgi holati, ya'ni mintaqalar turizm salohiyatini oshirish uchun qabul qilingan davlat dasturlari, mamlakat turizm sohasining SWOT tahlili, xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadida yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish yo'nalishlari, shuningdek joriy statistik ko'rsatkichlardan foydalanib mamlakatimiz turizm industriyasining rivojlanishi istiboli ochib berilgan.

Umuman olganda, magistrlik dissertatsiyasida tadqiqot mavzusini yoritishda turli xil jadvallar va chizmalardan ham foydalanilgan. Dissertatsiya ishida ko'tarilgan mavzu juda dolzarb ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli keyingi izlanishlarni olib borish uchun ham asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot mazmuni va natijalari bo'yicha 1ta maqola Xorazm Ma'mun akademiyasida "Buyuk Ipak yo'li- Muloqot yo'li" mavzusidagi davra suhbat materiallari to'plamida va 2 ta tezis 2015-yilda

o'tkazilgan "Xududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategiyasini ishlab chiqish yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy ish, kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib jami hajmi 103 betni tashkil etadi. Unda 9 jadval, 13ta chizma, 7 diagramma, 6 grafik hamda 2ta xarita keltirilgan.

I BOB. O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

1.1. Xalqaro turizm va uning tashkil topish xususiyati

Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi².Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri- turizm industriyasidir. Turizm - bu ishbilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi³.

Hozirgi kunda, butun dunyoda turizm muntazam ravishda ommaviy ijtimoiy hodisaga aylanib bormoqda. Bu o'z navbatida turizmning eng keng tarqalgan shakli xalqaro turizmning rivojlanib borishida namoyon bo'lmoqda. Turizmning jadal sur'atlarda o'sib borishiga asosiy sabab bu insonlarning xordiq chiqarish va mehnat qobiliyatlarini tiklashga bo'lgan extiyojlarini qondirish orqali o'z yashash sharoitlarini o'zgartirishga bo'lgan intilishlarining ommaviy tus olib borayotganligidir. Iqtisodiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, turizmning ahamiyatli va o'ziga xos xususiyati shundaki, u iste'mol talabining yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Bunday talab bitta tovarga emas, balki tovarlar va xizmatlarning butun bir majmuasiga tegishlidir.

Umuman olganda, turizm ikki yoqlamali mazmunni, ya'ni ishlab chiqarish va ijtimoiy mazmunni kasb etadi. Turistik maqsadlarda sayohat qiladigan insonning jismoniy va ruhiy kuchlarini qayta tiklanish darajasi turizmning ishlab chiqarish mazmunini namoyon etadi. Ayni bir vaqtda, insonning mehnatga qobiliyatini qayta tiklanish motivi turizmning harakatlantiruvchi kuchi sifatida

² Александрова А. Ю. Международный туризм: Учебное пособие для вузов. М.: Аспект Пресс, 2007.


³Квартальнов В.А. "Международный туризм". Учебник. - М, Финансы и статистика. 2007г.

ijtimoiy mazmunga ham ega bo‘ladi. Aks holda, insonning turistik sayohatlardan qoniqmaslik holati yuzaga keladi, bu esa, o‘z navbatida jamiyat iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi bo‘lgan kishilar farovonligining oshishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Turizmdagi ehtiyojlar manbaini bilish orqali turizmning insonlarni barcha ma’lum ehtiyojlari ierarxiyasidagi o‘rnini aniqlash mumkin. Bunga mos ravishda, insonlarning turistik sayohatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladigan, bu bilan mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish mumkin⁴.

Turizm nazariyasi va amaliyotida uning juda ko‘plab tasniflari keltiriladi. Ular bir-biridan turizm tushunchasining o‘zi, uning shakllanish tamoyillari, xizmat ko‘rsatish joyi va boshqa shu kabilarga ko‘ra farqlanadi. Butunjahon turizm Tashkiloti (BTT) tavsiyasiga ko‘ra, turizmning quyidagi asosiy turlari mavjud:

1.1.1- chizma

Turizmning turlari bo‘yicha tasniflanishi⁵



⁴ Здоров А. В. Экономика туризма: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2006.

⁵ I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R. Tursunova “Turizm asoslari” Toshkent 2008

Turizm sohasidagi ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarda xalqaro turizm sohasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Umuman olganda, xalqaro turizm mamlakatlar o'rtasidagi turistik aloqalar tizimini namoyon etadi va shu bilan ichki turizmdan farqlanadi. Demak, keltirilgan ta'riflardan biriga to'xtalsak, xalqaro turizm - muntazam va aniq bir maqsadga qaratilgan korxonalarning turizm sohasidagi faoliyati bilan bog'liq holda, biron bir mamlakat hududida (kirish turizmi) turistik xizmatlar va turistik mahsulotlarni biron-bir mamlakatda (chiqish turizmi) doimo yashaydigan sayohat qiluvchi shaxslarga taqdim etishdir.

Xalqaro turizmga kirish va chiqish turizmi kiradi. Mazkur mamlakat doirasidagi turizm bilan shu mamlakatlar fuqarolari (ichki turizm) ham, boshqa mamlakatlardan keladiganlar (kirish turizmi) ham shug'ullanadi. Mamlakatlar daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan u ko'proq jalb qiladi. Bu yo'nalishdagi turistik faoliyatning rivojlanishi bir tomondan mamlakatga valyuta oqimini, ikkinchi tomondan - mazkur mamlakatda yashovchi fuqarolarning pul mablag'larini ko'paytiradi. Bu daromadlar ushbu mamlakatda qoladi va uning iqtisodiyotini rivojlantirishga jalb etiladi. Bundan tashqari, ichki turizm shunday muhim iqtisodiy funksiyani bajaradiki, mazkur mamlakatda daromad darajasini maromiga yetkazishga yordam beradi. Bu degani shuki, sanoati rivojlangan mintaqalardan fuqarolarni yuqori daromadlari nisbati sust iqtisodiy rivojlangan mintaqalardagi kam daromadli fuqarolarga taqsimlanishiga imkon yaratadi.

Dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro turizm chet el valyutasi kelib tushishi va ish joylari yaratilishining muhim manbai hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, xalqaro turizm ham yuqori daromadlar va ham bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning zamonaviy vositasiga aylandi⁶. Deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro turizmni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga egaligi tan olinib bormoqda. Bunga sabab, hozirda turizm sohasi ichki va jahon savdosining stimulyatori rolini

⁶ Ильина Е. Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2007.


o‘ynayapti. Ko‘plab mamlakatlarda yalpi milliy mahsulotning beshdan bir qismidan tortib yarmigacha bo‘lgan miqdori turizm hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xalqaro turizm ijtimoiy-madaniy va xo‘jalik-iqtisodiy majmuani faollashtiradi, kishilarning madaniy va ma‘naviy hordiq chiqarishini ko‘rsatiladigan xizmatlarning miqdori va sifati hamda madaniy xizmat ko‘rsatish va hordiq chiqarish tadbirlarining turli – tumanligi bilan yanada boyitadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, hozirgi kunda, har qanday mamlakatning madaniyati ushbu mamlakatga tashrif buyuruvchi kishilar oqimining o‘tib borishi hisobidan yanada rivojlanib boradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqaro turizm o‘zidagi imkoniyat va resurslar manbai bilan mamlakatlar madaniyatining yanada boyib borishida muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki turizm yoki sayyohlik yangi tushuncha emas, ularning boshlanish davri qadim-qadimlarga borib taqaladi. Xalqaro turizm rivojlanish holati 4 davrdan iborat bo‘lib, quyidagi 1.1.2-chizmada batafsil ko‘rsatilingan.

1.1.2-chizma

Xalqaro turizm rivojlanish bosqichlari



➤ Qadimgi davr turizmi

Qadimgi sayyohlikning eng rivojlangan markazlaridan biri O‘rta yer dengizi qirg‘oqlarida joylashgan Gretsiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Misr, Tunis kabi mamlakatlar bo‘lib hisoblangandi. Dengiz bo‘ylarida yashovchi aholilar savdo-sotiq, diniy safarlar, ilm olish, davolanish, yangi hududlarni kashf qilish maqsadida uzoq safarlarga dengiz orqali suzishgan. Bu to‘g‘risida juda ko‘pgina ma’lumotlar mavjud bo‘lib ularning bir qismi hozirgi kungacha bizga yetib kelgan. Jumladan

Gresityada V asrda (eramizga qadar) Gerodot va IV asrda (eramizgacha) Pifey kabi olimlarni boshqa mamlakatlarni o'rganish uchun sayohatga yuborganlar. Gerodot birgina Misrda bo'lib qolmasdan balki, Liviya, Vaviloniya, Assuriya, Kichik Osiyo, Qora dengizning shimoliy sohillarida ham bo'lishgan. U o'zining sayohat taassurotlarini to'qqiz tomlik «Tarix» nomli asarida tasvirlab bergan.

Qadimgi Xitoy ham o'z davrida yuksak madaniyatli davlatlardan biri bo'lgan. Xitoylik sayyohlar, olimlar, daryo, dengiz, tog'lar to'g'risida juda ko'plab geografik ma'lumotlar (qo'lyozmalar)ni yozib qoldirgan. Xitoy elchisi CHjan San II asrda (eramizgacha) sayohatga chiqib juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plab qoldirgan. Uning bosib o'tgan safar yo'llari keyinchalik Buyuk Ipak yo'liga asos bo'lgan.

Qadimgi davrda turizmning rivojlanishi juda murakkab kechgan. Safar muddati ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Kishilarning sayohatda yurish tezligi o'rtacha soatiga 6 km. dan oshmagan. Bir kunlik bosib o'tgan safarining umumiy masofasi esa 50-60 km atrofida bo'lgan. Sayohatga chiqish imtiyozi va zarurati faqat savdogarlar, boy-badavlat kosib yoki mayda savdogarlar, dvoryanlar va aslzodalarga ta'luqli bo'lgan. Sayohatchilar safar davomida asosan ot ulovlardan, qayiqlar va kemalardan foydalanishganlar. Ular sayohat davomida yakka holda yoki savdo karvonlariga qo'shilib o'z manzillariga etib borishganlar. XIX asr boshlariga kelganda odamlar yashaydigan kontinentlarni kashf etish asosan tamomlanadi. Shimoliy va Janubiy qutblar territoriyasi o'zlashtiriladi. Dengiz va dunyo okeanlari qismlarida okeanagrafik ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

➤ **Xalqaro turizmning boshlang'ich davri**

Turizm sohasida birinchi mutaxassislardan biri angliyalik Tomas Kuk 1843 yilda birinchi marta 570 kishidan iborat e'tiqod qiluvchilarni to'plab Angliyaning Lestera va Lafebaro shaharlari o'rtasida turistik guruhni poezda sayohatga olib chiqadi va ommaviy turizmning tashkil etilishiga asos soladi. Aynan Kuk turistlarni chiptalar narxini belgilashda kattagina chegirma berib o'z ishini rivojlantiradi. Tomas Kuk 1851 yilda «Tomas Kuk va o'g'li» sayyohlik

kommersiyali firmani tashkil qiladi va u hozirgi zamonaviy turizm industriyasiga asos soladi.

Turizm industriyasining gurkirab rivojlanishiga ko'p hollarda samolyot inqilobi, jumladan transportdagi tub o'garishlar, yangi zamonaviy transport vositalarining paydo bo'lishi, temir yo'llar qurilishi sabab bo'ladi. 1838-yilda birinchi bor «Greytvestern» parrakli - vintli paraxodning qurilishi, u 68 yo'lovchini Amerikadan Yevropaga olib borib qo'ydi va shu tariqa Nyu-York va London shaharlari o'rtasida muntazam kema qatnovi tashkil etiladi.

O'sha davrda biznesning yangi sohasi turizm tez orada juda ko'plab tadbirkorlarni o'ziga jalb qila boshladi. Tomas Kuk firmasidan keyin Angliyada Treymza va Sera Lan turistik tashkiloti, turistlar siyosiy assosiasiyasi, «Velosipedchilar klubi» kabi bir qancha yangi turistik tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Biroz keyinroq turistik firmalar va agentliklar Fransiyada, Italiyada, Shveysariya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida paydo bo'la boshlaydi.

XX asrda dvigatelli avtomobilning kashf etilishi insoniyat uchun qulay va juda tez fursatda harakat qilish uchun imkoniyatlar tug'dirdi, avtomobillar va avtobuslar yaratildi. 1903-yilda amerikalik aka-uka Raysilar tomonidan matorli samolyot yaratildi va bir vaqtning o'zida u Yevropa osmonida paydo bo'ldi. Dengizda suzuvchi poroxodlar ham mukammallashib bora boshladi. Jumladan, «Sirius», «Luzitaniya», «Mavritaniya», «Imperator», «Faterland», «Titanik» kabi katta suv sig'imiga ega va tezligi yuqori bo'lgan yo'lovchilar tashuvchi transport vositalari paydo bo'ldi. Dengiz va havo transportining taraqqiyoti xalqaro yo'lovchlarni tashish va ular sonining o'sishiga imkoniyat tug'dirdi.

➤ **Xalqaro turizmning rivojlanish davri**

Birinchi jahon urushidan keyin, (1920 yillardan boshlab) xalqaro turizm yangi rivojlanish bosqichiga o'tadi. Urush davrida ko'pgina turistlar Italiya va Shveysariya mamlakatlariga borgan bo'lsalar, urushdan so'ngi yillarda esa ularning safari butun Yevropa mamlakatlarini qamrab oladilar.

1930-yillar xalqaro turizmning rivojlanishida pasayish davri bo'lib hisoblanadi. Buning asosiy sababi 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy

inqirozining kuchayishi Yevropada siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Germaniyada davlat xokimiyatiga Gitler boshchiligidagi nasistlar partiyasining kelishi bilan bog'liq bo'ldi.

Xalqaro turizm ko'pgina mamlakatlarda o'ziga turli maxsus xizmat vakillarini jalb qila boshladi. Ya'ni turizm sohasi turli xil davlat ahamiyatiga ega bo'lgan axborotlarni to'plashi va qo'poruvchilik ishlarini amalga oshiradigan manba bo'lib qoladi. Ispaniyadagi fuqarolar urushi davrida Germaniya Tashviqot va Targ'ibot vazirligida maxsus turizm bo'limi tashkil etilganligi buning yaqqol dalilidir. Uning asosiy vazifasi Ispaniyaga polyak askarlarini turist tarzida yuborishdan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushi xalqaro turizmning hajmini keskin kamaytirib yubordi. Urushdan keyin ko'pgina Yevropa mamlakatlari shaharlari xarobalikka aylanib qoldi. Hamma mamlakatlarda pul tanqisligi, yoqilg'i-energetika resurslari, oziq-ovqat va malakali kadrlarning yetishmasligi davlatlarning milliy iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu borada dunyo mamlakatlaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, harbiy qurollanish poygasining to'xtovsiz kuchayishi xalqaro turizm rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

➤ **Xalqaro ommaviy turizmning yuksalish davri**

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Yevropaning ayrim mamlakatlarida, AQSH va Kanadada xalqaro turizm rivojlana boshlaydi. Turizm yakka tartibdan, uyushgan ommaviy holatga aylana boshladi. 1947-yilda Parijda xalqaro turistik tashkilotlarning rasmiy Ittifoqi (MSOTO) tasdiqlandi. Uning haqiqiy a'zolari bo'lib davlat va nodavlat tashkilotlari hisoblanadi. Ittifoq tarkibiga 116 davlat kirgan.


XX asr o'rtalari xalqaro turizmning eng yuqori darajada yuksalishi bilan baholanadi. Xalqaro turizm jadallik bilan rivojlanishiga birinchi o'rinda dunyoda siyosiy vaziyatning o'zgarishi «sovuq urush» siyosatining susayishi va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi bilan belgilanadi. Turistlarning ijtimoiy kelib chiqish tarkibi anchagina o'zgardi. G'arb mamlakatlaridagi mehnatkash ommaning iqtisodiy, turmush tarzining ijobiy holga o'zgarishi, ish haqining o'sishi, ta'til

kunlarining ko'payishi kabilar katta ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro turizm rivojlanishiga fan-texnika taraqqiyotning o'sishi, ayniqsa havo transportida reaktiv yo'lovchi samolyotlarning yaratilishi katta imkoniyatlarni tug'dirdi. XX asrning so'nggi o'n yilida xalqaro turizm eng yuqori texnologiyalar asosida rivojlanib borayotgan jahon turizm industriyasiga aylandi.

BTT ma'lumotlariga ko'ra eng ko'p miqdordagi turistlarning kelishi Yevropa mamlakatlari, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarida kuzatiladi.

1.1.3- chizma

Xalqaro turistlar tashrifi (million kishi hisobida)⁷



Mazkur grafikdan ma'lumki, Yevropa mintaqasi turistlarni jalb qilish bo'yicha ko'p yillardan buyon yetakchilik qilib kelmoqda. Xususan, 2015-yilda turistlar sonining 29 millionga oshishi umumiy turist tashrifining 5%ga ortishiga olib keldi. Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi ham 2014-yilga nisbatan xalqaro turist tashrifida 5% o'sishga erishdi. Amerika mintaqasida AQSH dollarining yuqori baholanishi tufayli chiquvchi turizmga talab ortdi va bu sayyohlarni jalb

⁷ Manba: BTT ma'lumotlari 2016-yil yanvar oyidagi soni

qilishda Markaziy Amerikaning 7%ga, Janubiy va Shimoliy Amerikaning 4%ga oshishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalari ham turizm sohasida yuqori natijalarga erishishga harakat qilmoqdalar.⁸

Yevropa turizmi. Mintaqa turistik resurslarga juda boy bo'lib yer shari bo'yicha alohida ajralib turadi. Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda uning siyosiy xaritasida 40 tadan ortiq davlatlar mavjud bo'lib, ulardan 27 tasi Yevropa Ittifoqi tashkilotiga birlashgan. Yevropada dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qudratli davlatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Rossiya Federatsiyasi) joylashgan.

Xalqaro turizm hamon u dunyo turizmning eng asosiy mintaqalaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri mintaqada xilma-xil rekreatsion resurslarning mavjudligi, ikkinchidan turizmning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma omillaridir. Yana mintaqaning geografik joylashish omili, ya'ni ko'pgina dunyo mamlakatlariga quruqlik, suv yo'llari bilan chiqish imkoniyatlarining mavjudligidir. Ushbu mintaqaning eng muhim xususiyatlaridan biri ichki mintaqaviy turistik oqimning ustunligidir. Yevropa bo'ylab sayohat qilayotgan turistlarning qariyb 9/10 qismi mahalliy aholidir.

Fransiya hozirgi kunda Yevropada eng ko'p turistlar kelib ketuvchi mamlakat bo'lib hisoblanadi. Fransiya kelib-ketuvchi turistlarni jalb etuvchi asosiy turistik resurslar mamlakatning xilma-xil, boy tabiiy resurslaridir. Parij shahri mamlakatda turistlarning kelishi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Shaharda dunyoga mashhur bo'lgan Eyfel minorasi, Notr-Dam ibodatxonasi, eng yirik Luvr muzeyi, Napolyon Bonapart qabri, Lyuksemburg va Tyuirli bog'lari, Dislelend ko'ngil ochar, dam olish manzilgohlari, ilm -fan markazi Lya Vilett shahri kabilar beqiyos, son-sanoqsiz sayyohlarni o'ziga chorlaydi⁹.

⁸ The Statistical Annex of the International Monetary Fund World Economic Outlook of April 2015, Page 150, at www.imf.org.

⁹ X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norchayev "Xalqaro Turizm" Toshkent- 2009

Yevropada xalqaro tashrif buyuruvchi turistlarning umumiy soni bo'yicha Fransiya dan keyingi o'rinni Ispaniya davlat egallaydi. Ispaniya xorijiy sayyohlarga sohillari, dam olishdan tashqari keng ko'lami ekskursiya dasturlarini taklif qilib kelmoqdalar. Yevropada xorijiy sayohatga chiquvchi davlatlar o'rtasida Germaniya alohida o'rin egallaydi. BTT ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya turistlarning xorijiy sayyohatga chiqishi 2020 yilga boganda ikki barobarga o'sishi kutilmoqda va uning umumiy soni 163,5 mln. kishiga teng bo'lishi mo'ljallangan¹⁰.

Osiyo turizmi. Xalqaro turizm bozorida Osiyo - Tinch okeani turizmi juda tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan mintaqalardan hisoblanadi. Mintaqada turizmga sarflanadigan xarajatlar miqdori Yevropa va Amerikaga nisbatan anchagina kamligi bilan tasniflanadi.

Hozirgi kunda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi xalqaro turizm bozorida Xitoy alohida o'rinni egallaydi. Shuningdek, xalqaro turistlar tashrifi bo'yicha «Yangi sanoatlashgan» mamlakatlar, jumladan: Syangan (Gonkong), Malayziya, Singapur, Tailand, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Tailand kabilar ham faollik ko'rsatmoqdalar. Yaponiya mintaqadagi eng rivojlangan turistik davlatlardan biridir. Yaponiya ko'ngil ochish turizmi bo'yicha dunyoda AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda.

Amerika turizmi. Amerikada, xuddi Yevropadagidek singari turistlar oqimining eng ko'p qismi mintaq ichki turizmga to'g'ri keladi. Ayniqsa, intensiv turistik oqim Shimoliy Amerikada: AQSH, Kanada va Meksika mamlakatlari o'rtasida kuzatiladi. Eng ko'p turistik oqim BTT ma'lumotlariga ko'ra, AQSHdan Meksikaga kelishadi. Bu esa dunyodagi eng ko'p turistlar tashrifi oqimi bo'lib hisoblanadi.

Afrika turizmi. Afrika xalqaro turizm sohasi bo'yicha unchalik yuqori o'rinni egallamaydi. Eng ko'p tashrif buyuruvchi turistlar Jazoirga, Marokko va Tunisga to'g'ri keladi.

¹⁰ F.Kamilova,Z.Kamilov "Xalqaro turizm bozori" Toshkent- 2009

Yaqin Sharq turizmi. BTT ma'lumotlariga ko'ra, Yaqin Sharq mintaqasiga asosan Misr, Livan, Isroil, Oman, Saudiya Arabistoni, Suriya, Arab Respublikasi, Birlashgan Arab Respublikasi mamlakatlarini kiritadi.

1.2 Xalqaro turizm sanoati tasnifi


Turizm industriyasini aniqlashning juda ko'p yo'llari mavjud. Ulardan biri va nisbatan muvoffaqiyatlirog'iga BMT tomonidan 1971-yilda ta'rif berildi. Unga ko'ra turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngil ochish ob'ektlari va vositalari, bilim o'rttirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistlik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir.

Hozirgi paytda amaldagi klassifikatorlardan birortasi ham turistik faoliyat turlarini uzil-kesil belgilovchi ro'yxatga ega emas. Turizm sohasida faoliyat turlarining xalqaro klassifikasiyasi (SIKTA) standartlari BTT tomonidan ishlab chiqilgan va 1993 yilda BMT statistikasi komissiyasi tomonidan vaqtincha klassifikatsiya sifatida qabul qilingan. SIKTA turizmga daxldor statistik axborotlarni ob'ektiv yig'uv tizimini yaratish, qayta ishlash, umumlashtirish va tarqatishga xizmat qilishga asoslangan.


SIKTA quyidagilarni joriy etish imkon beradi:

- turizm to'g'risida milliy va xalqaro darajada statistik ma'lumotlarni taqqoslashni ta'minlash;
- mutaxassislarga bozor kon'yukturasi, turistik tovarlar va xizmatlar to'g'risida ishonchli axborotlar taqdim etish;
- xalqaro savdo taraqqiyotida turizm hissasi va to'lov balansi ahvoli to'g'risida aniqroq baholash va o'tkazish.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatning ijtimoiy tuzilishidan qat'iy nazar, turizm sohasida turistlik faoliyatni amalga oshiruvchi bir qancha turdagi korxonalar bir-birini uyg'un ravishda to'ldiradi va iste'molchi uchun zarur bo'lgan hamda assortiment bo'yicha yetarli darajadagi barcha xizmatlarni ko'rsatadi.



¹¹ X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norjayev "Sog'lig'ini Sug'urta qilish va Xavfsizligini Ta'minlash" Toshkent-2009



Yuqorida keltirilgan jadvaldan ma'lumki, turizm sohasini tashkillashtirishda turoperatorlar va turistlik agentliklar asosiy vazifani bajaradi. Bu korxonalar turizm xizmatining o'zi bilan bevosita shug'ullanmaydilar, balki faqat iste'molchi bilan bevosita xizmat ko'rsatuvchining o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar.

Transport korxonalari, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish ob'ektlari va sayr - tomoshalar turizm industriyasida birlamchi turistik xizmatlar ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Zarur iqtisodiy resurslardan foydalangan holda ular bozorda sotish uchun olib chiqiladigan xizmatlar yaratadilar. Har bir ishlab chiqaruvchi o'zi uchun ularni samarali amalga oshirish va qulay yo'llarini belgilab oladi. Ular bo'yicha xizmatlar oldi-sotdi qator seriyalari vositasi oxirda turgan iste'molchigacha yetkaziladi.

Tovar va xizmatlarning hamma ko'p xilliklari, jumladan turistik xizmatlarni sotishning ikki asosiy bazis tipik kanallariga birlashtirish mumkin: bevosita va bilvosita holatda. Bevosita kanallar ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlaydi. Aviakompaniyalar, mehmonxonalar, tematik parklar va boshqa turizm industriyasi korxonalari o'z mijozlariga to'g'ridan-to'g'ri xizmatlarni sotadi. Shu maqsadda ular o'zlarining xususiy savdo nuqtalarini ochishadi, katalog va telefon orqali sotishni tashkil qiladilar. Keyingi paytlarda esa telekommunikasiya tarmoqlari rivojlanishi bilan kompyuter tarmog'i va elektron pochtdan iste'molchilarga turistik xizmatlarni taqdim etish va bronlashtirib qo'yishda keng foydalanilmoqda.

Boshqa taqsimlash kanalning bazis tipi - bilvositadir. Uning belgi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida vositasi mavjudligidir. Ular qimmatli axborotlarni tashuvchilar hisoblanishadi. Axborot muhim rol o'ynaydigan hozirgi jamiyatda iqtisodiy tizimda ularning o'ri beqiyos. Vositachilik uning egasiga imkoniyatlarning kengligi haqida to'liq tasavvur beradi va faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Axborot yetishmasligi esa aksincha imkoniyatlarni boy berib qo'yilishiga olib keladi.

Turoperatorlar turistik mahsulotni shakllantirishni, uni bozor tomon harakatini, shuningdek realizatsiya qilinishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Turizm sohasida ko'proq ulgurji sotuvchi turoperator hisoblanadi. U tashkil etilgan turizm generatoridir. Unga turistik xizmatlar bozorini shakllantirishda alohida o'rin ajratiladi.

Turoperatorlar faoliyati bosh yo'nalishi ommaviy iste'mol talablariga mo'ljallangan turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Ulgurjichilar seriyali xizmatlarni yig'ib komplektlashadi. Ularni safar marshrutlarini standartlash, programmalar va kompleks xizmat ko'rsatish yo'li bilan turistlarga yagona paketda pekij-turlarni sotadilar. O'z mahsulotini standartlashgani va ommaviyligi evaziga ular muomiladagi to'planib qolishni kamaytirishga erishadi. Jumladan, narxni ham bu esa ularga bozorga raqobatbardosh takliflar bilan chiqishga imkon beradi.

Turistik agentliklar - bu iste'molchiga, ya'ni turistga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Ular orqali turistik safarlarning kattagina qismini sotish amalga oshiriladi. Bu eng avvalo xorijga sotishda qo'l keladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qiziqarli sayohat marshrutini o'ylab topish va ishlab chiqish oson, iste'molchi topish esa qiyinroq. O'xshash takliflar bilan to'lib-toshgan bozor sharoitida o'tkir raqobat kurashi va aholining xarid qobiliyati cheklangani turagentlar zimmasiga og'ir vazifa - mijozni jalb etish va aynan shu safarga ko'ndirishdir. So'ngra uning bilan shartnoma tuzish, pul olish, pasport, viza, bilet rasmiylashtirish, vaucher berish, safarga jo'natish, unga sog'-salomat qaytishini ta'minlash, oxirida undan ehtimol minnatdorchilik eshitish yuklangan.

Keyingi uchta klassifikator ya'ni sug'urtalash, xavfsizlikni ta'minlash va mulkni qo'riqlash xizmatlarining sifat darajasi mamlakat siyosiy-iqtisodiy barqarorligidan kelib chiqadi. Har qanday mintaqada turizm sohasini tashkil etish iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashdan boshlanadi.

Tashish sohasi sayohatning o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan bo'lib, unda transport eng muhim katta ahamiyatga ega. Har bir mamlakatning transport sektori uning geografik joylashish holatidan kelib chiqadi. Misol uchun, Rossiya, Turkiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda daryo va dengizlarning ko'pligi hisobiga suv transportidan – sollar, daryo va dengiz suv usti va osti kemalaridan foydalanilsa, Afrika turistik regionlari quruq iqlim sharoiti tufayli asosan xayvonlardan tuya va otlardan foydalanishadi.

Joylashtirish - turizm industriyasining eng muhim elementlaridan biridir. Mehmonxona industriyasi mintaqa yoki turistik markaz xo'jaligining eng kuchli tizmi va turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

BTTning ma'lumotlari bo'yicha jahonda 30 milliondan ortiq turli xil mehmonxona o'rinlari mavjuddir. Jahonning turistik mintaqalari bo'yicha mehmonxonalar fondining taqsimlanishi xalqaro turizm tarkibi miqyoslari bilan mos keladi. Hozirgi kunda jahonning 44 mamlakati har birida 100 mingdan oshadigan o'rinli mehmonxona fondiga ega. Ular qatoriga AQSH, Italiya,

Germaniya, Fransiya, Ispaniya va boshqalarni kiritish mumkin. An'anaviy turistik mamlakatlarda o'rtacha hajmdagi mehmonxona yaqinida bozorga chiqqan va o'zi to'g'risida yangi turistik yo'nalishni namoyon etgan mamlakatlarga qaraganda ancha kam. Bu avvalgi yillardagidek yirik bo'lmagan qurilishlar, eski turistik markazlarda mijozlarni qabul qilishda yaratilgan moddiy bazaning ulardagi uncha katta bo'lmagan otellardagi ulushi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Joylashtirish ob'ektlarining qandaydir o'rinlar bilan ifodalangan sig'imiga qaramay, BTTning joylashtirish sektorini baholash uchun boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi: mehmonxonalar soni va ulardagi nomerlar, daromad hajmi, xodimlar soni kabilar. Jahon mehmonxona industriyasi daromadlari uning 70 % dan ziyodrog'i Yevropaga va Amerikaga to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlar shuningdek mehmonxonalar soni bo'yicha ham yetakchilik qilib kelmoqda. Ammo bu ko'rsatkich bo'yicha ular o'rtasida farq katta. Yevropada jahondagi jamiki mehmonxonalar umumiy sonining 55 % va Amerikada esa 22 % ro'yxatga olingan. Mazkur mehmonxonalar har xil turdagi joylashtirish vositalari bo'lib, ular ichida asosan mehmonxona zanjirlari sayyohlarni jalb qilish bo'yicha yetakchilik qiladi. Bunday turdagi mehmonxonalar yetakchiligiga sabab, ularning jahonning asosiy turistik mintaqalarida tarmoqlari mavjudligi va yagona boshqaruv tizimiga ega ekanligi hisoblanadi. Yagona boshqaruv tizimiga ega bo'lgan mehmonxona zanjirlari ko'plab iqtisodiy jihatdan ustunlikka ega bo'ladi.

Hozirda ko'plab yirik mehmonxona zanjirlari mavjud bo'lib, ular orasida quyidagi nomi ko'rsatilingan mehmonxonalar jahondagi eng mashxur mehmonxona zanjirlari hisoblanadi.

Jahonning eng yirik va mashxur mehmonxona zanjirlari¹²

¹² www.WTTC 2015 Edition datas



Misol tariqasida bir nechta mehmonxonalar faoliyati va tashkiliy tuzilmasi bilan tanishib chiqamiz.

1.2.2 – jadval

Jahonning eng mashxur mehmonxona zanjirlari¹³

Mehmonxona nomi	Mehmonxona savdo belgilari soni	Umumiy mehmonxonalar soni	Tarmoqlar tashkil etigan mamlakatlar soni
Intercontinental Hotels Group	9	4600	100
Best Western	3	4000	100
Marriott	5	3700	74
Hilton	10	540	78
Accor	12	3500	92

Jadvaldan ma'lumki, dunyodagi eng yirik mehmonxona zanjiri "Intercontinental Hotels Group" mehmonxonalar va tashrif buyuruvchi sayyohlar umumiy soni bo'yicha yetakchilik qiladi. Jahonning eng katta 20ta mehmonxona bozorining 13tasi mazkur mehmonxona savdo belgisidan iborat. "Best Western" mehmonxonasi ham 100ta mamlakatda o'z tarmoqlarini ochgan va har yili katta hajmdagi turistlar tashrifini qabul qiladi. Navbatdagi taniqli mehmonxona o'z

¹³ Tourism Highlights 2015 Edition World

faoliyatini juda kichik hajmda boshlagan va bugunga kelib dunyoning yetakchi joylashtirish industriyalaridan biriga aylandi. “Marriott” ning yuksalishiga sabab uning asosiy 5ta “ oltin qoida”ni o’zida mujassamlashtirganligi hisoblanadi. Bular

- ❖ Odamlarni birinchi qo’yish
- ❖ Mukammallikka intilish
- ❖ O’zgarishlarni qo’llab quvatlash
- ❖ Halollik bilan faoliyat ko’rsatish
- ❖ Bugungi dunyoga xizmat ko’rsatish

“Hilton”, “Accor” va boshqa mehmonxona zanjirlari ham yuqori darajadagi xizmatlari bilan memonxona industriyasida oldinlab bormoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari turistning ovqatga bo’lgan ehtiyojini qondiradi. Ular xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Turistik ovqatlanish industriyasiga restoranlar, kafelar, barlar, oshxonalar, tamadixonalar va boshqalar kiradi. Turistlarning bular singari joylashtirish vositalari bilan birgalikdagi ovqatlanish korxonalari xizmat sifati va madaniyati, oshxonasi va taklif etadigan taomlari, o’rinlar soni, ish rejimi, mijozlarga xizmat ko’rsatish shakllari bilan tasniflanadi.

Dunyo bo’yicha ovqatlanish korxonalarining yagona tasniflari mavjud emas. Lekin, shunga qaramasdan ham, ko’p mamlakatlarda ommaviy tarqalgan ma’lum bir ko’rinishdagi ovqatlanish korxonalari ajratilib ko’rsatiladi. Restoran eng ommabop ovqatlanish korxonasi bo’lib, juda ko’p assortimentli taomlar bilan, gazaklari bilan, har xil pishiriqlari va spirtli-spirtsiz ichimliklari bilan ajralib turadi. Restoranlarda yana individual buyurtmalar asosida ham juda ko’p salat va taomlar tayyorlashi bilan birga Yevorpacha hamda milliy ovqatlar ham tortiq qilinadi. Xizmatlar ko’rsatiladigan mehmonlarning soni bo’yicha restoranlar kichkina (10-15 kishigacha) va katta (500 kishi va undan ortiq) restoranlarga bo’linadi.

Milliy oshxonaga ega bo’lgan restoranlar ham mavjud. Dunyoda italyancha, xitoycha, grekcha, turkcha, inglizcha, amerikacha, hindcha, fransuzcha, nemischa

kabi restoranlar juda mashhur. Ularning ayrimlari narxlarining juda arzonligi bilan ajralib tursa, ayrimlari esa qimmatliligi bilan ajralib turadi.

Odatda sayyohlar qaysi mamlakatda bo'lsalar, o'sha mamlakatning oshxonasi bilan tanishishga qiziqadilar. Milliy restoranlar bilan tanishtirish nuqtai nazardan ham sayohatlar tashkil etiladi. Masalan, Bavariyada sayyohlarni Bavariya (Germaniya) oshxonasi bilan, ya'ni mashhur oq sosiskalar hamda bavarcha pivo bilan mehmon qilishadi. Myunxenda esa sayyohlarni albatta «Xofbrayxaus»ga, ya'ni eng katta pivo zaliga olib borishadi. Avstriyada dunyoda eng mashhur bo'lgan vencha shnisellarni (katlet turi) tamaddi qilishga olib borishadi va albatta Italiyada esa hech qaysi tushligi pastasiz (makaronli taom) o'tmaydi.

AQSHda va barcha ko'pgina mamlakatlarda afg'oncha, kolumbcha, hindcha, chexcha kabi restoranlar ishlab kelmoqda. Oxirgi paytlarda vegeterianlarga xos oshxonalar ham paydo bo'la boshladi va yahudiylar uchun maxsus tayyorlanadigan taomlar restoranlar ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.


Milliy restoranlarga xush ko'ruvchi sayohatchilar nafaqat mazkur mamlakat taomlari, shuningdek uning milliy urf- odatlari bilan ham tanishishadi. Ko'p hollarda folklor bayramlari ishtirokchisiga aylanadilar.

Turistlarni sayohat joylari bilan tanishtirish sayr-tomosha sektori nomini olgan. Sayr-tomosha sektori turizmning bosh motivlari sirasiga kiradi. Mazkur sektorsiz biron bir turistik safar amalga oshmaydi. Odamlar yangi unutilmas taa'surotlar, ijobiy his-tuyg'ular, o'tkir sezgilar bilan yo'lga otlanadilar. Kishining bu va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sayr-tomosha vositalari yaratiladi va ko'ngil xushlik tadbirlari o'tkaziladi.

BTT ma'lumotlariga ko'ra, 2014-yilda xalqaro turistik tashriflar asosan quyidagi maqsadlarda amalga oshirigan.

1.2.2- chizma

Kirish turizmi maqsadlar bo'yicha tasniflanishi¹⁴



1.2.2- diagrammadan ma'lumki, 2014-yilda xalqaro sayohatlar asosan dam olish, rekreatsiya va bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish maqsadida amalga oshirilgan. Shuningdek, davolanish va diniy ziyorat safarlari ham katta salmoqqa ega bo'lib, umumiy tashriflarning deyarli uchdan bir qismini tashkil etgan. Biznes va kasbiy maqsadlarda qilingan sayohatlar esa 14%ni tashkil etdi.


Quyidagi 1.2.3 – chizmada 2014-yildagi xalqaro turistik tashriflarni transport vositasi bo'yicha tasniflanishi ko'rsatilingan.

1.2.3 – chizma

Xalqaro sayohatlarni transport vositasiga ko'ra tasniflanishi¹⁵

¹⁴ UNWTO Tourism Highlights 2015 Edition

¹⁵ UNWTO Tourism Highlights 2015 Edition




Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, havo transporti sayyohlar uchun eng qulay transport vositasi hisoblanadi. Bunga sabab, deyarli barcha mamlakatlarda havo transporti yo'lga qo'yilganligi va uning serqatnovligidir.

Xalqaro turizm industriyasining barcha sohalari texnologiya taraqqiyoti, aholi turmush darajasining oshishi, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga talabni ortishi, salomatlikni tiklash, dunyoning ko'rish ishtiyoqi ortishi va boshqa bir qancha omillar natijasida yildan- yilga rivojlanib bormoqda.

1.3. Xalqaro turizm rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillari

Xalqaro turizm ham iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari ma'lum bir omillarga tayanib faoliyat olib boradi. Mazkur omillar o'z navbatida, mamlakat turizm sohasining rivojlanishiga yoki aksincha sustlashiga sabab bo'ladi. Xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagi 1.3.1 – chizmada ko'rsatilingan.

Xalqaro turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar¹⁶

Mazkur omillarga batafsil to'xtalsak, geografik omillar o'z navbatida tabiiy geografik va iqtisodiy geografik omillarga bo'linadi. Tabiiy geografik omil deyilganida, kishilar tabiat qo'yniga chiqib, juda ko'p manzarali joylarni ko'rish va ulardan bahramand bo'lishga intilishi tushuniladi. Sayyohlik, dam olish uchun tabiiy sharoitning xilma-xilligi darajasi va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Ya'ni ma'lum bir hududning yer usti ko'rinish manzarasi, iqlimi, o'simlik va hayvonat dunyosi xilma-xilligi kishilarning dam olishi, o'z salomatligini tiklashi uchun asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu sababli sayyohlik firmalari ekzotik, betakror tabiiy ob'ektlarni ko'proq reklama qilishadilar. Ayniqsa Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika,

¹⁶ X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norchayev "Xalqaro Turizm" Toshkent-2009

Avstraliya va Okeaniya kabi mamlakatlar o'zining diqqatga sazavor tabiiy ekzotikalari bilan Yevropa va Shimoliy Amerikalik sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning geografik o'rni ya'ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg'oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo'llar bilan kesishish joyi, tog'li va o'rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Ko'p minglab turistlarning kelib ketishida turistik o'lkaning yer usti tuzilishi relefi katta rol o'ynaydi. Tog'li, xush manzarali, murakkab relief tuzilishiga ega bo'lgan o'lkalar turistlar oqimini o'ziga ko'proq jalb qilishadi. Tog'li o'lkalar o'zining toza va sof havosi bilan ajralib, tog' sportini rivojlantirish imkonini tug'diradi. Yevropaning Alp, Osiyoning Himoloy, Afrikaning Atlas, Amerikaning Kordilera va Yangi Zellandiyaning Janubiy Alp tog'lari xalqaro turizm sohasida yirik markazlarga aylanishi bejiz emas.

Xalqaro turizmning rivojlanish jarayonlari ko'p xollarda mamlakatlar va hududlarning tabiiy iqlim sharoitiga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda tabiiy iqlim sharoiti yetakchi o'rinni egallaydi. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat inijliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mo'tadil iqlim zonalariga to'g'ri keladi. Jumladan, O'rtayer dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg'oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega.

Dunyo okeani va dengiz qirg'oqlari xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, sayyohlik va sayr-tomoshalarni uyushtirishda asosiy ahamiyatni kasb etadi.

Okean va dengiz suvlarining cho'milishi uchun qulay bo'lgan qirg'oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiklim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo'lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to'lqinlari,

ko'tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relefi, qirg'oq chiziqlarining tuzilishi va qolaversa bir qator omillar ta'sir etadi.

Daryo va ko'llar ham turizm resursi yoki boyligi bo'lib xizmat qiladi. Ular yer usti landshaftlarini bezaydi, mikroiklim sharotini hosil qiladi, turistlar uchun baliq ovlash, suv sporti bilan shug'ullanish, turistik markazlar, kurort maskanlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda Avstriya, Shvesariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Polsha kabi mamlakatlardagi daryo va ko'l suv havzalari turizmning eng rivoj topgan turlari bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda o'rmon boyliklarining roli ham anchagina. U turistlarning dam olishida, hissiyotini muvozanatlantirishda, lirik shart-sharoitlarni vujudga keltirishda, «tashqi dunyo»dan ajralgan holda, qisqa vaqtlarda yashashida muhim rol o'ynaydi. O'rmonlar toza havoni ishlab chiqaruvchi asosiy man'ba, salomatlikni qayta tiklovchi maskan, kurort hududlarida shovqinni qaytaruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Xorijiy sayyohlarni o'ziga ko'proq jalb qiluvchi omillardan biri - bu ekzotik (g'alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo'riqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog'lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonat va o'simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo'lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayyohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Ko'pgina xorijiy turistlarni o'ziga jalb qiladigan omillardan biri, bu shifobaxsh mineral suvlar bo'lib hisoblanadi. Uning asosiy maskanlariga Rossiya, Gruziya, Vengriya, Slovakiya, Chexiya, Ukraina kabi bir qator mamlakatlar misol bo'ladi.

Xorijiy turistlarning tog' sharoitidagi sport turlari alpinizm (Alp, Kordilera, Himolay tog'lari h.k.), chang'i sporti (Skandinaviya, Alp, Tatra tog'lari) suv ustida chang'ida suzish, suv ostida suzishlar turlari borgan sari rivojlanib bormoqda. Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Shvesiya, Buyuk Britaniya,

Gretsiya hamda AQSH mamlakatlarida xorijiy sayyohlar sport ovlari, baliq ovlashlarda keng ko'lamda ishtirok etmoqdalar.

Ma'lum bir mintaqada, hududda xalqaro turizmning rivojiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-geografik omillarga quyidagilar kiradi:

- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy-geografik joylanishi;
- turistlarni qabul qiluvchi va turistlar yuboruvchi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi;
- ichki turizm sohasining rivojlanish holati;
- xorijiy turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, malakali kadrlarning soni, ularning tayyorgarlik darajasi h.k.
- ma'lum bir hududda rekrasion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarning narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari, turistik ob'ektlar qurilish maydonlarining bahosi;
- transport, aloqa vositalarining hududda tutgan o'rin va holati bilan xarakterlanadi.

Turizm rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda mikroiktisodiy omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorsizlik, ishsizlik darajasini o'sishi, pulning qadrsizlanishi kabilar jamiyatni qo'zg'atadi va bezovta qiladi. Ayrim hollarda esa kishilar o'z uyida qolib, hech qayoqqa sayyohatga bormasdan o'tirishga to'g'ri keladi. Qachonki, biror mamlakatning iqtisodiyoti yuksalishda bo'lsa, qaysikim ishlab chiqarish imkoniyatlari, ya'ni valyutalar miqdorining ortib borishi bilan belgilanadi. Qaysi bir mamlakatda turizmdan keladigan foyda YaIMda salmog'i anchagina bo'lgan taqdirda investisiyalar ya'ni mehmonxonalar qurishga va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga sarf etiladi. Shu bilan birga milliy daromadini o'sishi, ayniqsa aholi shaxsiy ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan xarajatlarning o'sishi darajasi, ularning sayyohlikka bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Kishilarning dam olishida

turistik mahsulotlar va turistik tovarlar bahosi eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, turizmni moliyalashtirishda valyuta kursi ham muhim rol o'ynaydi. Valyuta almashtirishning soddaligi, uning osonligi kabilar.

Tabiiyki, xalqaro turizmning rivojlanishi darajasiga mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatlar, masalan iqtisodiy inqirozlar, valyuta inflyasiyasi, ishsizlik darajasining o'sishi va pasayish holati kabilar ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadilar.

Xorijiy mamlakatlarda sayyohatga boradigan turistlar, odatda, o'sha yerda nimalarni xarid qilishi qiziqtiradi. Bu noyob, mahalliy hunarmandchlik mahsulotlarini, suvenirlarni, qarindosh urug'lari, oila a'zolari uchun xarid qilishidir.

Turizm rivojlangan bir qator mamlakatlarda xorijiy davlatlardan keladigan sayyohlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat eksportini rivojlantiradi. Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Gresiya, Italiya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar xorijiy turistlarga uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar (kiyim-kechaklar, ro'zg'or buyumlari, elektornika, radio, telefon, televizor, videotexnika asboblar)ini sotishga kirishganlar.

Siyosiy omillarga kelganda turistlarni qabul qilib oluvchi va turistlarni jo'natuvchi mamlakatlarda muhim turistik marshrutlar yo'nalishidagi hududlarda, mintaqalarda siyosiy vaziyatning holatiga ham bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg'unligi ko'p hollarda xalqaro turizm oqimining yo'nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar misol uchun aholining tug'ilishi, o'limi, tabiiy ko'payishi, aholi migrastiyasi kabilar ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko'payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglomerastiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi.

Xalqaro turizmning rivojlanishida etnik shart-sharoitlar ham alohida ahamiyatga ega. Dunyo aholisi irqi, millati, tili, dini, turmush tarzi, madaniyatining xilma-xilligi bilan ko'pgina turistlarda qiziqish o'yg'otdi.

Shuningdek, demografik belgilar ham xalqaro turizmning yuksalishini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Demografik belgilar deyilganida turistlarning jinsi, yoshi, qiziqishi, oiladagilar soni kabilar nazarda tutiladi. Mazkur belgilar soha rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi omillardan hisoblanadi.

Shunday qilib, turistik bozorni yosh belgilari bo'yicha turlicha turistik mahsulot taklif etilishi lozim bo'lgan quyidagi segmentlarini belgilab olish mumkin:

- O'zlari hamda ota-onalari bilan sayohat qiluvchi bolalar (14 yoshgacha)
- Yoshlar (15-24 yosh)
- Oilalari bilan sayohatga chiquvchi, iqtisodiy faol kishilar (25-44 yosh)
- Farzandlarisiz sayohat qiluvchi, o'rta yoshdagi iqtisodiy faol kishilar (45-60)
- “ Uchinchi yosh” guruhiga kiruvchi turistlar (60 yosh va undan yuqori)

Turizmning rivoji bilan sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash borgan sari muhim va zarurat masala bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyohlarni jo'natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo'nalishlarida ularning xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagi hayotiy holda bo'lmog'i zarur.

Xalqaro kelishilmovchiliklar yoki harbiy xatti harakatlar, xalqaro jinoyatchilik, terrorizm voqea va hodisalari xalqaro turizm oqimiga nafaqat to'sqinlik qiladi, balki uning rivojiga juda katta zarba beradi. Bu to'g'rida xalqaro turizmning asosiy generatori (boshlovchisi) bo'lgan har bir mamlakatning tashqi ishlar vazirligi o'zlarining fuqarolari sayyohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to'g'risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlarni sayyohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar to'g'risida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlar sayyohatga boradigan mamlakatdagi mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalarining sanitariya- gigienik holati, shu

jumladan ichimlik suvi to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarini, yuqumlik infeksiyon kasalliklar kelib chiqishi xavf-xatari to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlar bilan oldindan xabardor bo'lishi kerak.

Turistik infratuzilmalar o'z tarkibiga mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalari, aloqa yo'llari yig'indisi (yo'llar, shox yo'llar, aeroportlar, kemalar to'xtaydigan joylar h.k.), kommunikasiyalar (suv quvurlari, elektr tarmoqlari, markaziy isitish korxonalari, oqova suv tarmoqlari, axlat to'plovchi korxonalar, telefon, aloqa, (pochta bo'limlari), huquqni himoya qilish, jamoat - tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot tashkilotlari, maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, do'konlar, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog'langandir.

Turistik infratuzilmalar turistik zaruriy shart-sharoitlarini, sayyohlarning xavfsizligi, sog'lik-salomatligini ta'minlashga qaratilgan. Ma'lumki, sayyoh uchun qaysi bir joyda tinchlik osoyishtalik, maishiy qulaylik yaratilgan bo'lsa, u o'sha joyga borishga intiladi. Turist avtomobildami, poezddami, mehmonxonadami qisqasi qayerda bo'lmasin u o'zini xavf - xatarsiz holda sezishi, unga zarurat birinchi yordam ko'rsatilishi zarur. Mabodo zarurat tug'ilsa, u yer kurrasining har qanday joyi bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lishi, yuqori darajada tibbiyot maslahatlari, zaruriy servis xizmati olish imkoniga ega bo'ladi.

Fan-texnika yutuqlari turizm industriyasi va mehmondo'stlikda, yo'lovchilar tashishda, axborotlar almashish sohalarida keng ko'lamda foydalanilmoqda. Havo transportida yangi zamonaviy tez yurar, yirik yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan havo kemalarning ishlab chiqarilishi sababli sayyohlarga xizmat ko'rsatish ham rivojlanib bormoqda.

Temir yo'l transporti sohasida texnologik omillar borgan sari rivojlanib, o'z aksini poezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya va Fransiya kabi mamlakatlarda tez yurar yo'lovchi poezdlar tezligini soatiga 485 km.ga yetkazishga erishildi. Temir yo'l transportining aviatsiya transportidan afzalligi shundan iboratki, temir yo'l vokzallari shahar markazida joylashgan bo'lib, sayyohlar uchun qulay imkoniyatlar tug'diradi.

Telekommunikasiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona o'rinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologilarning paydo bo'lishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Xalqaro turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o'rinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional turagentlik tarmoqlarining rivojlanishini, tur operatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bog'liqligi bo'lib hisoblanadi.

Telekommunikasiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona o'rinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologilarning paydo bo'lishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Xalqaro turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o'rinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional turagentlik tarmoqlarining rivojlanishini, tur operatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bog'liqligi bo'lib hisoblanadi.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, sayyohlar o'z qiziqish va istaklariga ko'ra sayohat qilishadi. Yoshlar asosan dam olish, mashxur joylarni ko'rishni afzal ko'rishsa, uchinchi yosh vakillari uchun esa tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, davolanish va diniy safarlar ma'quldir. Jahonning turistik jihatdan rivojlangan mamlakatlari imkon qadar barcha turdagi turizm yo'nalishlarini tashkil qilishga intiladi. Chunki, faqat ma'lum bir qatlamdagi sayyohlarni jalb qilish orqali mamlakat turizm sohasini rivojlantirish mushkul. BTT ma'lumotlariga ko'ra quyidagi o'nta mamlakat turistlarni jalb qilish bo'yicha yetakchilik qilmoqda¹⁷.

1.3.2 - jadval

¹⁷ UNWTO May 2015 ma'lumotlari

Jahonning eng yuqori xalqaro turizm markazlari (million kishi hisobida)¹⁸

O'rin	Mamlakat nomi	2013	2014
1	Fransiya	83.6	83.7
2	AQSH	70.0	74.8
3	Ispaniya	60.7	65
4	Xitoy	55.7	55.6
5	Italiya	47.7	48.6
6	Turkiya	37.8	39.8
7	Germaniya	31.5	33
8	Buyuk Britaniya	31.1	32.6
9	Rossiya Federatsiyasi	28.4	29.8
10	Meksika	24.2	29.1

Jadvaldan ma'lumki, jahonning eng ko'p turist tashrif buyuradigan mamlakatlarning aksariyat qismi Yevropa mintaqasiga to'g'ri keladi. Bunga sabab, Yevropa turli xil turistik rekreatsion resurslarga, yuqori darajadagi infratuzilmaga, qulay geografik joylashuv va yuqori aholi turmush darajasiga ega. Shu bois ham Yevropa mintaqasining turistik regionlari katta hajmdagi yillik turist tashrifiga egadir. Dunyoda sayyohlarni jalb qilish bo'yicha Fransiya xalqaro turizm tashkil etilganidan bugungi kungacha yetakchilik qilib kelmoqda. AQSH 2013-yilda 70 million sayyohga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 2014 – yilda ular soni 4 million 800 mingga ortdi. Meksika jahonning eng mashxur turistik markazlari qatoriga 2014-yilda kirishga muvaffaq bo'ldi va 2015-yilda ham o'z o'rnini saqlab qoldi. Meksika turizmi hozirda asosan mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatish evaziga rivojlanmoqda. Quyidagi 1.3.3 – jadvalda eng yuqori xalqaro turizm tushumlariga ega mamlakatlar va ularning o'sish tendensiyalari ko'rsatilgan.

1.3.3 – jadval

¹⁸ UNWTO 2015 Edition

Eng yuqori xalqaro turizm tushumlari¹⁹

O'rin	Mamlakat	2013 (million)	2014 (million)	2013 (foizdagi o'zgarish)	2014 (foizdagi o'zgarish)
1	AQSH	172.9	177.2	7%	2.5%
2	Ispaniya	62.6	65.2	7.6%	4.2%
3	Xitoy	51.7	56.9	3.3%	10.2%
4	Fransiya	56.7	55.4	5.6%	-2.3%
5	Makao(Xitoy)	51.8	50.8	18.1%	-1.9%
6	Italiya	43.9	45.5	6.6%	3.7%
7	Buyuk Britaniya	41.0	45.3	12.1%	10.3%
8	Germaniya	41.3	43.3	8.2%	5%
9	Tayland	41.8	38.4	23.4%	-8%
10	Gong Kong	38.9	38.4	17.7%	-1.4%

Jadvaldan ma'lumki, AQSH turizm sanoatidan jahn miqyosida eng yuqori daromad oladigan mamlakat hisoblanadi. AQSH yuqori daromad olish bo'yicha ko'p yillardan buyon yetakchilik qilib kelmoqda va uning mazkur sohadan olgan daromadi 2014-yilda 177.2 million dollarni tashkil etdi, ya'ni 2013-yilganisbatan 2.5% o'sishga erishdi. Ispaniya va Xitoy davlatlari ham yangidan-yangi turistik yo'nalishlarni rivojlantirayotgani sababi yuqori xalqaro turizm tushumlariga ega bo'lishmoqda. Navbatdagi davlat Fransiya jahonning eng ko'p turistik tashrifiga ega mamalakat hisoblansa ham, turizmdan oladigan daromad yildan-yilga kamaymoqda. Italiya, Germaniya va Buyuk Britaniya sayyohlarni jalb qilish orqali foyda olishda o'sish tendensiyasiga ega davlatlar hisoblanadi.

¹⁹ Tourism Highlights 2015 Edition World

II BOB. O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

2.1. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning xuquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 1-sentyabrda o'zining mustaqiligini qo'lga kiritishi natijasida mamlakatda iqtisodiy islohotlar jadallik bilan o'tkazila boshlandi. Shu singari milliy turizm ham shu yillardan shakllana boshladi. Milliy turizmning shakllanishi va rivojlanishiga "O'zbekturizm" MK bosh qosh bo'la boshladi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda «O'zbekturizm» MK davlat boshqaruvi, tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish huquqlariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi tashkilot bo'lib hisoblanadi.

«O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining vujudga kelishi va bu tashkilotning 1993-yili Butunjahon turizm tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi O'zbekiston turizmi taraqqiyotida qo'yilgan ulkan qadam bo'ldi. Respublikada xalqaro turizmni yangi bosqichga ko'tarish va samarali faoliyat ko'rsatishiga mos keladigan yangi shart-sharoit va mexanizmlar vujudga keldi. Milliy turizm rivojlanishi demak shu yillardan boshlandi desak hato bo'lmaydi. Milliy turizmni rivojlantirish maqsadida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi.

Milliy turizm tizimida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi 1992-yilda boshlandi. Respublikada boshlangan ushbu islohot yangi iqtisodiyotga asoslanib olib borildi. Turizm sohasiga oid ishlab chiqilgan ilk me'yoriy hujjat bu - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi «O'zbekturizm» MKni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 20-oktyabrdagi «O'zbekturizm» MK faoliyatini tashkil etish masalalari haqida»gi qaroridir. Mamlakatimizda jahon andozalariga javob beradigan turizm tizimini barpo etish, ushbu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo'lib kelgan va sobiq ittifoqqa bo'ysungan turistlik tashkilotlar va muassasalarni respublika ixtiyoriga o'tkazish ushbu farmon va qarorning bosh maqsadi qilib

olindi. Mazkur farmon O‘zbekistonda turizm sohasini takomillashtirish, uni yangi bosqichga ko‘tarish, «O‘zbekturizm» MK ni tuzish uchun dastur bo‘lib xizmat qildi.

Turizm tarmog‘ini iqtisodiy isloh qilishning ikkinchi bosqichi 1993-1995 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda turmush rivojlanishning milliy modeli ishlab chiqildi. Bu bosqich turistik xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy o‘sishi bilan bir qatorda bir qancha muammolarni tug‘dirdi. Bu muammolar yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatishning yaxshilash, turizmning moddiy-texnik bazasni kengaytirish, boshqaruvning tashkiliy takomillashtirish va hokozolar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni faqat «O‘zbekturizm» MK doirasida yechishning imkoni yo‘q edi.

Turistik ob‘ektlar davlat tarmog‘idan chiqarildi va xususiylashtirildi. Nomerli fondga muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1993-yil oxiriga kelib respublika turizm tizimida huquqiy va mustaqil balansga ega bo‘lgan 123 tashkilot bor edi.

1995-yilning 1-iyulida O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi tomonidan butun mamlakat xududida amal qiluvchi yagona turistik viza o‘rnatildi (davlat tomonidan belgilangan ob‘ektlardan tashqari). Turizm rivojining ikkinchi bosqichiga qo‘yilgan boshqa bir qadam tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura inshootlari, yaratilgan san‘at asarlarning saqlash va ko‘paytirishga yo‘naltirilgan «meros» milliy dasturni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi bo‘ldi. Bu davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivada xalqaro turizm bo‘yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqildi. «O‘zbekturizm» MK turoperatorlar bilan bevosita aloqalarni o‘rnatish maqsadida O‘zbekiston havo aloqasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda o‘z vakolatxoansni ochdi. Germaniya (Frankfurt), Buyuk Britaniya (London), AQSH (Nyu-York), Birlashgan Arab Amirliklari (Shardj), Rossiya (Moskva) kabilar shular jumlasidandir.

1995-1997 yillarda turizmni isloh qilishning uchinchi bosqichi amalga oshirildi. Bunda xizmatlar sohasida faol xususiylashtirish boshlandi. 1996-yili «O‘zbekturizm» MK tizimidagi barcha turistik ob‘ektlarning umumiy sonining 90 foizi davlat ta’sarrufidan chiqarildi. Mazkur yillarda qabul qilingan farmon va

qarorlarning muhim jihatlaridan biri shu bo'ldiki, unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo Kengash tuzilib, ushbu Kengash faoliyatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

- turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- jahon andozalari darajasida kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;
- sayr-tomoshalar zamonaviy industriyasini, madaniy va sport-sog'lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko'maklashish;
- noyob turizm imkoniyatlari va tarixiy-madaniy merosini keng ko'lamda targ'ib qilinishi va maskanlashtirishni tashkil etish;
- turizm tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish;
- turizm sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash.


1998-yildan o'zbek turizmni isloh qilishning to'rtinchi bosqichga qadam qo'yildi. Bu qayta tiklanish bosqichi bo'lib, eksport salohiyatning oshishi, valyuta, turist, xususiy kapital va investitsiyaning barqaror oqimni ta'minlashga olib keldi. Yurtimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish va uni tashkil etishni takomillashtirish, turizm xizmatlari bozorida kichik va o'rta turistlik tashkilotlarining qatnashishini faollashtirish, xorijiy sarmoyadorlarni turizm sohasidagi faoliyatga keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 8-avgustda «Turizm tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida» qarori bilan «O'zbekturizm» MK qayta tashkil qilindi va O'zbekistonning xususiy turistlik tashkilotlari Assostiastiyasi yaratildi.

Qarorda Xususiy turistlik tashkilotlar uyushmasi (bundan buyon - XSTU) ni tashkil etish va uni «O'zbekturizm» MK tarkibiga a'zo sifatida kirishi belgilab berildi. Shuningdek, «O'zbekturizm» MK XSTUga turistlik tashkilotlar faoliyatini tashkil etish, marketing, malakali kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash hamda turizm faoliyati sohasida qonun hujjatlariga rioya etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va huquqiy yordam ko'rsatishni ma'lumot uchun qabul qilindi.

1999-yilning mayidan boshlab turizm iqtisodiyotning isloh qilishning beshinchi bosqichi boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Turizmni rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmoni mamlakatda milliy xalqaro turizmning mavqeyini, uning iqtisodiy asoslarni qat’iy belgilash uchun siyosiy asos yaratdi. Mazkur qonun O‘zbekistonda xalqaro turizmni yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarishda, turizmni kuchaytirish va turizmga xizmat qilishi lozim bo‘lgan infratuzilmalar vujudga keltirish imkonini ochib berdi, shuningdek turistik tashkilotlarga qo‘shimcha bojxona imtiyozlarni yaratildi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning diplomatik vakillaridan chet elda turizm bo‘yicha maslahatchi lavozimiga kiritishdi. 1999-yilning avgustida Parlament «turizm to‘g‘risida»gi qonunni qabul qildi va iqtisodiyotning bu tarmog‘ning amal qilish uchun huquqiy asos yaratildi

2.1.1- chizma

O‘zbekistonda turizm sohasini boshqarish bo‘yicha davlat organlari²⁰



²⁰ X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norchayev “Xalqaro Turizm” Toshkent-2009

O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarishda Respublika Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi «2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida» gi Farmoni ham alohida ahamiyatga egadir. Ushbu Farmon millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda xalqaro turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish, shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish maqsadida qabul qilinib, 2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tarkibi tasdiqlandi.

Farmonda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, turistlik tashkilotlar xorijdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turizm maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona bojlari to'lashdan uch yil muddatga ozod qilinishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, «O'zbekturizm» MK tizimidagi korxonalarga xorijiy turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan turistlik xizmat va qo'shimcha xizmat ko'rsatish huquqi berilib, buning uchun maxsus kassalar ochilishiga ruxsat berildi. «Umid» jamg'armasi har yili talabalarni turizm industriyasi mutaxassisliklari bo'yicha yetakchi xorijiy mamlakatlarga ta'lim olish uchun yuborishni ko'zda tutishi ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar, Moliya va Madaniyat ishlari vazirliklarining va «O'zbekturizm» MKning O'zbekiston Respublikasining AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi birliklarini joriy etishlariga ijozat berildi.

Ushbu Davlat dasturi olti bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim: «Turizmning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish» deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida» gi qonunini tayyorlash, fuqarolarimizning xorijga chiqishi va O'zbekistonga xorijiy fuqarolarning kirishi haqidagi takliflarni o'rgangan holda, xorijiy turistlar uchun boj, viza va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish nizomiga o'zgartirishlar kiritish; madaniy meros yodgorliklarining

to'liq ro'yxatini tuzish va nashr etish, yodgorliklarni noqonuniy tarzda olib chiqib ketgan va ularga ziyon yetkazilgan hollarda davlat, jamoat tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarliklari haqidagi tartibni tayyorlash vazifalari belgilab berildi. Mazkur bo'limda belgilab berilgandek «Turizm to'g'risida»gi Qonun 1999-yil 20-avgustda qabul qilindi, boj va viza hujjatlarini rasmiylashtirish nizomiga o'zgartirishlar kiritildi, xullas barcha vazifalar to'liq amalga oshirildi.

2-bo'lim: «O'zbekturizm» MKning 1999-2005 yillardagi investitsiya siyosati» deb nomlanib, unda Samarqand shahrida «Prezident-otel» mehmonxonasi qurilishi (mablag'ning 85% xorij investitsiyasi, 15% «O'zbekturizm» MK hisobidan), shahardagi «Samarqand» mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSH dollari. Xorijiy va mahalliy sarmoya); Xivada yangi mehmonxona qurilishi (bu ham 85% ga 15%), Urganchda «Xorazm» mehmonxonasini qayta tiklash (7,5 mln AQSH dollari, Hindiston krediti); Toshkent shahridagi «O'zbekiston» mehmonxonasini qayta tiklash (31,5 mln AQSH dollari, xorijiy sarmoya). Shuningdek, 50-60 o'rinli 2-3 yulduzli mehmonxona qurilishi (20 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Toshkent viloyati Chorvoq suv ombori hududida dam olish zonasi va golf klubi qurilishi (100 mln AQSH dollari, xorijiy sarmoya); Buxorodagi «Buxoro» mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSH dollari, xorijiy sarmoya); Andijondagi 60 o'rinli yangi mehmonxona qurilishi (12 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), shahardagi «Oltin Vodiy» mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Jizzaxdagi «O'zbekiston» mehmonxonasini qayta tiklash (10 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Termizdagi mehmonxonani qayta tiklash (6 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Shahrisabzdagi «Shahrisabz» mehmonxonasini qayta tiklash (6 mln AQSH dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya) kabi juda katta mablag' talab etiladigan vazifalar belgilab olindi.

3-bo'lim: «Marketing tadbirlari» deb nomlanib, unda O'zbekistonning diqqatga sazovor joylari haqida turistlarga ma'lumot berish va turmahsulotlarni taklif qilish maqsadida internet, e-mail xalqaro axborot tarmoqlaridan

foydalanishni rivojlantirish; Gid-ekskursovodlar uchun respublika tarixi, siyosiy hayoti, madaniy-tarixiy merosi, turizm imkoniyatlari, asosiy qonunlari, ijtimoiy fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari haqidagi barcha axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan informatsion-uslubiy ma'lumotnoma ishlab chiqish; Har yili Toshkent shahrida xalqaro «Buyuk Ipak yo'li» turistik yarmarkasini o'tkazish, shuningdek, yirik xalqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etish; yangi va maxsus turistik turlarni ishlab chiqish (tarixiy, ekologik, ekzotik va sport); «Turizm-revyu» teleko'rsatuvini doimiy ravishda tashkil etish, O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorliklariga oid kinofilmlar ishlab chiqarish, reklama prospektlarini va xususiy «Buyuk Ipak yo'li» axborot - reklama haftalik gazetasini nashr ettirish; Informatsiya olish va almashish maqsadida xalqaro tashkilotlar (BTT, YUNESKO, YUNID, PROON) bilan hamkorlikni faollashtirish. Rivojlangan davlatlar turizm tashkilotlari bilan tajriba almashish asosiy vazifa sifatida qaraldi. Bu bo'limda ham belgilangan internet va saytlar xalqaro informatsiya tarmoqlaridan foydalanish, gidlar uchun ma'lumotnomalar ishlab chiqish, har yilgi turyarmarkani o'tkazish, xalqaro turtashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi va boshqa vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda.

4-bo'lim: «Turistlarga xizmat ko'rsatishni xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, turizm infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish» deb nomlanib, unda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turistlarni ijaraga avtomobil vositalari bilan ta'minlash; Markaziy Osiyo respublikalari uchun mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida BTTning malaka oshirish institutini tashkil etish; BTT orqali turizm bo'yicha xalqaro markazlarda (Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlari) «O'zbekturizm» MK xodimlarini, turizm va gid-tarjimonlik bo'yicha mutaxassislarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash; Madaniy-tarixiy inshootlarda xalq ijodi va hunarmandlik mahsulotlari sotish uchun kiosklar tashkil etish, xalq urf-odatlarini, an'analarini namoyish etuvchi videoroliklar tayyorlash va ularning savdosini tashkil etish; Muzey kolleksiyalari va arxeologik topilmalar nusxalaridan tayyorlangan sovg'alar ishlab chiqarishni tashkil etish; Turizm ob'ektlarida milliy urf-odatlar va an'analarni


namoyish etish; Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turizm tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish; turistlik xizmat ko'rsatish andozalariga muvofiqlikni nazorat qilib borish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi. Mazkur bo'limda belgilab berilgan vazifalar ham amalga oshirilmoqda.

5-bo'lim: «Jahon merosi, madaniyati va tarixiga kiruvchi qo'riqxonalar, yodgorlik shaharlarini muhofaza etish va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha tadbirlar» deb nomlanib, unda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratildi: Xalqaro ilmiy-amaliy turistlik ekspeditsiyalarni tashkil etish yordamida xorijdagi vatanimiz madaniyati, tarixi, fani va san'ati yodgorliklarining qimmatini o'rganish; Milliy bog'lar, an'anaviy choyxonalar, xalq amaliy san'ati va ko'rgazmalarini tashkil etish va ularni turizm marshrutlariga kiritish; Turizm ob'ektlarini mamlakatimiz tarixi bilan bog'liq tarixiy va madaniy yodgorliklarni doimiy ravishda qayta tiklash.

6-bo'lim: «Ichki turizmni tashkil etish bo'yicha tadbirlar» deb nomlanib, unda Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari turizm markazlarida piyoda yuruvchi turistlar uchun maxsus yo'laklar tashkil etish; Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga va kam ta'minlangan oila farzandlariga bepul ekskursiyalar tashkil etish; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari va Farg'ona vodiysiga ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy ekskursiyalarni tashkil etisha va o'tmish allomalarimizning xotira majmualariga ekskursiyalar tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Mazkur belgilangan vazifalar to'liq amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda turizm sohasini amal qilishi uchun huquqiy asos yaratilishi bilan mazkur tarmoqning davlat tomonidan boshqarishning asosiy funksiyalari belgilab olindi. Quyidagi 2.1.2-chizma turizmni davlat tomonidan boshqarishning funksiyalari ko'rsatilgan:

Turizmni davlat tomonidan boshqarishning funksiyalari va usullari²¹



Turizmni davlat tomonidan boshqarish funksiyalari ma'lum bir usullarga tayanibish olib boradi. Misol uchun, turistik faoliyatni umumiy tashkil etish va huquqiy me'yorlar funksiyasi asosan hamkorlik shartnomalarini tuzish, viza olishda namoyon bo'lsa, turizmni rivojini rejalashtirish deyilganida infrasturukturani rivojlantirishni strategiyasini va konsepsiyasini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Turizmda xavfsizlikni ta'minlashda litsenziyalashtirish,

21 X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norchayev "Xalqaro Turizm" Toshkent-2009

standartlashtirish, sertifikatlash va sug'urtalash ishlari olib boriladi. Nihoyat, eng so'ngi funktsiya nazorat qilish amalga oshiriladi.

Navbatdagi hujjatlar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrda «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi to'g'risida»gi qarori va unga Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-aprelda qarori bilan o'zgartirishlar va qo'shimchalarning kiritilishi bo'ldi.

Respublikamizda turizm sohasi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-iyundagi «O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida»gi Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 2-iyuldagi «O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlarga muvofiq, 1999-2000 o'quv yilidan boshlab turizm sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida mujassamlashtirilishi bayon etildi. Shu maqsadda Universitetda Xalqaro turizm fakulteti va unga qarashli «Turizm menejmenti», «Turizm servisi», «Turizm marketingi» kabi mutaxassislik (va boshqa nomutaxassislik) kafedralari tashkil etildi.

Bundan tashqari viloyatlar bo'yicha turistik regionlar infratuzilmalarini yanada takomillashtirish va bu orqali mamlakatimizga tashrif buyuradigan xalqaro sayyohlar sonini oshirish maqsadida ko'plab qonunlar va 2016-2017-yillarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqildi. Xorazm viloyatida 2016-2017-yillarda turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi shular jumlasidandir.

Yurtimizda turizmni rivojlantirishga oid ko'plab farmon va qarorlar ishlab chiqildi. Mazkur qarorlar ijrosini ta'minlash va respublikada turizm taraqqiyoti uchun zarur

bo'ladigan ulkan imkoniyatlar mavjudligidan oqilona foydalana bilish hozirgi kunning talabidir.

2.2. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash bo'yicha xalqaro hamkorlik

O'zbekiston turizmning rivojlanishida "Buyuk Ipak Yo'li" ning tutgan o'rni va mohiyati nihoyatda cheksiz. Bir necha asrlar davomida ushbu zaminning G'arb va Sharqida istiqomat qilgan xalqlarni Janubiy-Sharqiy Osiyodan to O'rta yer dengizi mamlakatlarigacha cho'zilgan va "Buyuk Ipak Yo'li" deb nom olgan savdo-sotiq yo'li bir-biri bilan bog'lab turar edi.

Bu yo'lga "Ipak Yo'li" deb nom berilishining asosiy sababi, bu yerda tashiladigan mahsulotlarning asosiy qismi ipak matolari va mahsulotlari bo'lganligidandir. Ipak tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan sir-asrorlarni Xitoy ustalari ming yillar davomida boshqa odamlardan yashirib kelgan. Ammo "Buyuk Ipak Yo'li" orqali o'tib tashilgan mahsulotlar faqat ipakdangina iborat bo'lmay, balki bu yo'l orqali bronza, chinni, jun, xom ashyolar va ulardan tayyorlangan buyumlar ham edi. "Buyuk Ipak Yo'li" qariyb ikki ming yillik tarixga ega bo'lib, bu yo'l asosan Italiyadan tortib Turkiya orqali Iroq va Eronga borgan. U yerdan esa Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Pomir orqali o'tib Qashqar va Yarkentgacha yetgan. Bu yerda yo'l ikkiga ajralgan hamda shimol tomondan Takla-Makon sahrosini aylanib o'tib, Lobnor ko'li yaqinida yana qo'shilgan va Xitoygacha borgan.

Qadimiy Buyuk Ipak yo'li manzillari²²



²² O'zbekturizm"MK matbuot xizmati

Buyuk Ipak Yo'lida Turkiston hududi yetakchi rolni bajarib kelgan. Ushbu hududdagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Xo'jand, Chorjuy kabi qator shaharlar ipak yo'lidagi asosiy manzillar bo'lgan. O'zbekiston o'zining qulay geografik o'rni tufayli bu tarixiy yo'lda markaziy o'rinni egallagan. "Buyuk Ipak Yo'li" ko'p asrlar davomida kishilik madaniyatining vujudga kelishida katta o'rin egallagan.

XX asrga kelib Ipak Yo'lining shon-shuxrati ma'lum darajada o'z mohiyatini yo'qota boshladi degan edi. Endilikda uning nomi yana tez-tez tilga olinadigan bo'ldi. Uning tarixda tutgan o'rni hamda ahamiyatini tiklash, bu yo'lda turizmni rivojlantirish kabi maqsadlarni mo'ljallab, 1994 yilning oktyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning nufuzli tashkiloti YUNESKO ishtirokida O'zbekistonda Jahon turistik tashkilotining kengashi bo'lib o'tdi. 19 ta davlat ishtirokchilari kengash a'zolari sifatida Ipak yo'li bo'ylab turizm faoliyatini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan tarixiy xujjat - Samarqand Deklarasiyasini qabul qildi. Bundan tashqari «Buyuk ipak yo'li»da joylashagan barcha davlat Tashkilotlari va xususiy sektorlarning birlashihiga, integrastiyasiga qaratilgan BTT ning loyihasi qabul qildilar.

O'zbekistonda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun respublika rahbariyati va hukumati bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Jumladan, 1995- yil iyun oyidagi Respublika Prezidenti "Buyuk Ipak Yo'li»ning tiklanishida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini faollashtirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 210 sonli "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy ifratuzilmasini tashkil qilish to'g'risida"gi qaroriga imzo chekdi.²³

Ushbu farmonga binoan g'oyat muhim xalqaro turizm yo'nalishi Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash, xalqaro sayyohlar e'tiborni jalb qilish, shuningdek mamlakatga zamonaviy turizm sanoatini vujudga keltirish maqsadida quyidagi qarorlarni qabul qildi:

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. //Xalq so'zi, 1995.3- iyun.

- ✚ Buyuk Ipak yo'lidagi shaxarlar Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish;
- ✚ Mazkur shaxarlarning aeroportlari va temir yo'l vokzallarida xorijiy sayyohlar uchun bojxona rasm-rusumlarini xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek transit sayyohlar uchun maxsus bojxona zonalari tashkil etish;
- ✚ Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ikki oy muddat ichida xorijiy sayyohlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan ob'yektlardan tashqari respublikaning butun hududida amal qiliuvchi yagona viza o'rnatish;
- ✚ Tijorat banklariga tadbirkorlar xususiy mehmonxonalarni va mehmonxona infrastukturasi inshaotlarini barpo etishlari chog'ida ularga kamida 5 yil muddat ichida to'lash sharti bilan kreditlar berishni tavsiya qilish;
- ✚ "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan birgalikda investitsiya banki "O'zsayohatinvestbank"ni tashkil qilish va jamlanayotgan mablag'lar qat'iyan aniq maqsad yo'lida foydalanishni ustidan nazorat qilishni ta'minlash;
- ✚ O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki Moliya vazirligi 15 kun muddat ichida "O'zsayohatinvestbank"ning ustav jamg'armasini shakllantirish manbalari va uni qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi takliflarni kiritish;
- ✚ "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi, Madaniyat ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, yodgorliklarni muhofaza qilish Respublika jamiyati manfaatdor tashkilotlar bilan biralikda Buyuk Ipak yo'lidagi ko'hna shaharlarda joylashgan me'moriy, arxeologik, tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash, obodonlashtirish hamda foydalanish bo'yicha milliy "Meros" dasturi loyihasini 2 oy muddat

ichida ishlab chiqish va Idoralararo kengash muhkamasiga taqdim etish;

- ✚ Xalqaro turizmni rivojlantirish bilan bog'liq barcha masala;arni o'z vaqtida xal etilishi uchun shaxsiy javobgarlik "O'zbekturizm", "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalaring, Ichki ishlar vazirligining, Tashqi ishlar vazirligining, chegara va bojxona xizmatlarining raxbarlari zimmasiga yuklatilishi;
- ✚ Adliya vazirligi qonunlarga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

Bu farmon «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan tarixiy va madaniy shaharlarda turistik yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.²⁴

O'zbekistonda xalqaro turizmni yanada jonlantirish maqsadida 1995-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida "Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab turizm" deb nomlangan birinchi xalqaro turistik yarmarka o'tkazildi. Yarmarka shundan buyon har yili o'tkazib kelinmoqda. Bu yarmarkalarda tuzilgan shartnomalar xalqaro turizmni yanada rivojlantirish respublikaning turizmga oid imkoniyatlarini samara bilan ishga solish va "Buyuk Ipak Yo'li"ga xos bo'lgan qadimgi an'analarini tiklash borasida keng yo'l ochib beradi.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda "Buyuk Ipak Yo'li"ning ahamiyati cheksizligini hisobga olgan holda hukumat tomonidan qabul qilingan "Buyuk Ipak Yo'lining tiklanishida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni kutilgan natijalarni bermoqda.

Respublikamiz turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega. Bularga «Buyuk ipak yo'li»ning shoh tomiri respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. //Xalq so'zi, 1995.3- iyun.

shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qo‘qon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog‘lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shohimardon, Zomin, Boysun, Sherobod va boshqa shaharlar kiradi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo‘ladi. Bunga dalil sifatida 1999-yil 20 avgustda O‘zbekiston respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi hisoblanadi²⁵. Bu qonun 22 moddadan iboratdir. Qonunning maqsadi, turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Turizm sohasida xalqaro hamkorlikning rivojlanishini turistik yo‘nalishlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi kunda ko‘plab yangi turistik yo‘nalishlar ishlab chiqilmoqda, «O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasi tomonidan turistlarni qabul qilish bo‘yicha 200 dan ortik turistik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Turistik hamkorliklarni rivojlantirish maqsadida, tarixiy obidalar qayta ta‘mirlanmoqda, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar, transport yo‘llari qurilib ishga tushirilmoqda.

Ming yillar davomida «Buyuk Ipak yo‘li» Osiyo va Yevropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo‘l bo‘ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko‘maklashib kelgan. Hattoki, hozirgi vaqtda bu yo‘l insoniyat uchun global ahamiyatga ega bo‘lganligini baholash qiyin. Ammo, o‘zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo‘qolib ketmadi. Ayniqsa, transport va axborot aloqalarining, sanoat ishlab chiqarishning, tovar va xizmatlarning savdosini hamda, Osiyo va Yevropa mintaqalarining integratsiya jarayonlariga faol qatnashuvi «Buyuk Ipak yo‘li»ning «ikkinchi nafasi»ni olganini ko‘rish mumkin.

«Buyuk Ipak yo‘li»da xalqaro turizmni rivojlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, janubiy - sharqiy Osiyoni Yevropa bilan bog‘lab turadigan global Transosiyo transport liniyasini shakllantirish hisoblanadi. U o‘z ichiga

²⁵ Xalq so‘zi gazetasi. 1999 yil. 20 avgust soni.

Yaponiya, Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Kavkaz davlatlari, G'arbiy Osiyo (Pokiston, Eron) davlatlari va albatta Yevropa davlatlarini qamrab oladi. E'tiborga olish kerakki TRASEKA loyiha doirasida «Delfin» izlanishi olib borildi. Bu izlanishning mazmuni karvon - saroylarni tashkil qilishning texnik -iqtisodiy asoslanishi, ekspertlarning fikriga ko'ra, bu «Buyuk ipak yo'li»ning rivojlanishiga va xalqaro hamkorlikning samarali natija berishiga yordam beradi, chunki O'zbekiston va Turkmanistonning asosiy yo'nalishlarida yoqilg'i stantsiyalari, turar joylar, ovqatlanish punktlari va telekommunikatsiya zonalarining qurilishi, yangi turistik zonalarining shakllanishiga hamda turistik avtotransportning paydo bo'lishiga olib keldi.

Butunjahon Turistik Tashkiloti ekspertlari Buyuk Ipak yo'lida qatnashishiga qarab, qatnashuvchi davlatni 3 qismga ajratgan:

- Birinchi qismga o'ziga xos turizm milliy modelini shakllantira boshlagan O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlari kirgan. Bu yo'nalishda Butunjahon Turistik Tashkiloti asosiy masala qilib, turg'un rivojlanish dasturini tuzishda, turistik tarmoqqa investitsiyani jalb qilishda, qonunchilikni ishlab chiqishda va kadrlarni tayyorlashda ko'maklashishi hisoblanadi.
- Ikkinchi qismga «Buyuk Ipak yo'li» ob'yektlarini o'z ichiga olgan va turistik mahsuloti bilan aniq tajribaga ega bo'lgan davlatlar kiradi. Bular Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Gretsiya va Turkiya kabi davlatlardir. BTT ning ekspertlari fikriga ko'ra bu yerda xalqaro tashkilot «Buyuk Ipak yo'li» nomli turistik mahsulotning sotilishini rag'batlantirishi mumkin.
- Uchinchi qism esa, qadimgi aloqalarning oxirgi nuqtalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bularga bir tomondan Yaponiya, Koreya, ASEAN davlatlari kiradi. Bu yerda Butunjahon Turistik Tashkilotining vazifasi «Buyuk Ipak yo'li»ni targ'ibot qilish deb hisoblanadi.

«Buyuk Ipak yo‘li» turistik mahsulot mavqeining ko‘tarilishi uchun albatta boshlang‘ich asos bo‘lishi kerak. Uni sotish uchun barcha davlatlarning faol hamkorligi kerak. Chunki xususiy sektor va davlat sektori, xalqaro va milliy tashkilotlar, alohida turoperatorlar va mehmonxona komplekslari munosabatlarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo‘li» loyihani barcha yirik xalqaro yarmarkalarda: Berlinda TTV, Londanda WTM va Madridda FITUR faol targ‘ibot qila boshladi. Butunjahon Turistik Tashkilotining bashoratlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib dunyoning asosiy turistik yo‘nalishlari bo‘lib Xitoy hisoblanadi. Bu davlat hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar soniga ko‘ra yetakchi o‘ntalik qatoriga kiradi. Bundan kelib chiqib, «Buyuk Ipak yo‘li» loyihaga ishtirokchilarning oldida turistik mahsulotni shakllantirishda bu davlatlarni hisobga olish masalasi turibdi, masalan, Germaniya-O‘zbekiston - Xitoy, Fransiya - O‘zbekiston - Gonkong va boshqalar.

Turistlarning yillik xarajatlari 5 mlrd. dollarga yetishini hisobga olsa, O‘zbekiston ham bu valyutaning ayrim qismini shakllantirishga va o‘zlashtirishga yetarli imkoniyati bor. Chunki «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘ylab Xitoyga sayohat qiluvchi turistlarning asosiy qismi respublikamiz orqali harakat qiladi. Bu degani xorijiy turistlarning mamlakatimizdagi turistik ob‘yektlardan va transport vositalaridan foydalanganliklari uchun ma‘lum bir valyutaning davlat budjetiga tushishini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham xorijiy turistlar uchun «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘ylab transport (tranzit) yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu masalada madaniy va bilim qabul qilishga qaratilgan turizm eng katta qiziqish tug‘diradi.

Butunjahon Turistik Tashkilotining «Buyuk Ipak yo‘li» loyiha bo‘yicha yig‘ilishi 1996-yilda Xitoyda bo‘lib o‘tdi, bunda mahsulotning marketingiga oid masalalar ko‘rib chiqildi. «Buyuk Ipak yo‘li»da turizm bo‘yicha ikkinchi anjuman ham ahamiyatli bo‘lib o‘tdi. Ekspertlar fikriga ko‘ra bu yerda «Buyuk Ipak yo‘li»ning asosiy turistik resurslari: diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy ob‘yektlar, joylashtirish vositalari, transport va axborot markazlari

shakllandi. Bu tadbirlardan keyin ushbu loyiha rivojlana boshladi. Ammo, hamma muammolar yetarlicha yechilmagan edi, shuning uchun ham 1997-yil aprel oyida Tehronda «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘yicha ikkinchi xalqaro yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bunda quyidagi masalalar shakllandi: «Buyuk Ipak yo‘li» mintaqalarini xalqaro targ‘ibot qilish, bu turistik ma‘lumotni reklama qilish uchun global axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish.

Shularni e‘tiborga olib, qabul qilingan ushbu qaror va farmonlar, o‘tkazilayotgan xalqaro yarmarkalar va yig‘ilishlar g‘oyat muhim xalqaro turizm yo‘nalishi - «Buyuk ipak yo‘li»ni qayta tiklash, bunga xorijiy turistlarni jalb etish, shuningdek, mamlakatimizda zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadni qaratdi. Buning uchun esa: «Buyuk ipak yo‘li»dagi shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo‘yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo‘l vokzallarida xorijiy turistlar uchun bojxona rasmiyatchiliklarining xalqaro me‘yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona zonalari, turistik tashkilotlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilish, imtiyozli kredit berish ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklash bo‘yicha jahonning ko‘plab mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlar o‘rnatib kelmoqda. Xususan, 2014-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iston va Tojikiston davlatlarining “Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklash” bo‘yicha loyihasi tuzildi va xorijiy sayyohlarga ushbu loyiha to‘g‘risida so‘rovnomalar taqdim etildi. Tatqiqot natijalariga mos ravishda mazkur loyiha dasturlari belgilandi. Unga ko‘ra, “Ipak va ziravorlar” nomi ostida festival o‘tkazilib kelmoqda. Mazkur festival 5ta mamlakatning milliy turistik mahsulotlar namoyishidan iborat.²⁶

2015-yilning 2-5 noyabr kunlari Angliyaning London shahri “ExCel” ko‘rgazmalar markazida turizm sohasining yetakchi ko‘rgazmalarudan bo‘lmish “WTM-2015” (World Travel Market) Butuhjahon sayohat bozori ko‘razmasi bo‘lib o‘tdi. Ko‘rgazmada yurtimizdan 4ta yirik sayyohlik kompaniyalari –“Sitara

²⁶ www.Anur Tour (Central Asian Travel Agent)

International”, “Marco Polo Cat”, “Silk Road Destinations”, “Cats” ishtirok etib, O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlarini keng namoyish qilishga muvaffaq bo‘ldi.²⁷

O‘zbekiston sayyohlik va tarixiy joylar bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘n mamlakat qatorida turadi. Mamlakatimiz hududida 7 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar bo‘lib, ularning aksariyati YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini jahonga keng tanitish maqsadida qator xalqaro kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Dunyo miqyosidagi ko‘rgazma va yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. Yaponiyada o‘tkazilayotgan turizm ko‘rgazmasi yurtimiz jozibasini namoyish etish uchun yana bir qulay imkoniyatdir. 1977-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “JATA Tourism Expo Japan” dunyodagi eng nufuzli xalqaro ko‘rgazmalardan hisoblanadi. Bu yilgi forumda 150 dan ortiq mamlakatdan mingdan ziyod firma va kompaniyalar vakillari, ekspert va olimlar ishtirok etmoqda. Ko‘rgazma sayyohlik sanoatining barcha zamonaviy yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan. Unda biznes, ekzotika, ekologik, sport va ma’rifiy sayohat, kruiz, mehmonxona va restoran servisi, sog‘lomlashtirish kabi yo‘nalishlarga oid o‘nlab bo‘limlar ish olib bormoqda.²⁸

“JATA Tourism Expo Japan – 2015” xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida mamlakatimizning “O‘zbekturizm”, “O‘zbekiston havo yo‘llari”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Marco Polo Central Asia Travel”, “Megatour”, “Darvesh Tour Service”, “Sheherezade Voyages”, “Samarkand Global Star”, “Sitara International”, “Anur Tour” kabi kompaniya va tashkilotlari ishtirok etmoqda. Ko‘rgazma doirasida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, O‘zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasi, Yaponiya sayyohlik agentliklari uyushmasi (JATA) va Riga shahrida o‘tayotgan “Balttour – 2014” xalqaro turizm ko‘rgazmasida O‘zbekiston sayyohlik firma va kompaniyalari ham ishtirok etmoqda.

Ta’kidlash lozimki, xushmanzara tabiati, noyob tarixiy obidalari hamda

²⁷ “O‘zbekturizm”MK matbuot xizmati

²⁸ Manba Uza.uz (Navoiy vlioyati statistika boshqarmasi)

zamonaviy shaharlari bilan dunyoga mashhur O'zbekiston mazkur yarmarkada uchinchi marta ishtirok etmoqda. Bu galgi anjumanda Latviya, O'zbekiston, Vengriya, Vetnam, Gana, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Slovakiya, Tailand, Tunis, Turkiya, Ukraina kabi qirqqa yaqin mamlakatdan qariyb yetti yuz firma va kompaniya o'z mahsulot va xizmatlarini namoyish etmoqda. Mazkur tadbir sayyohlik sanoatining barcha zamonaviy yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda o'rmon, dengiz, delfinariy, sport, ekstremal va faol turizm, kruiz, mehmonxona va restoran servisi, aviatashuv kabi yo'nalishlarga oid o'nlab turdagi bo'limlar ishlab turibdi²⁹.

O'zbekiston sayyohlik salohiyati Rigada namoyish etilmoqda. 2015-yil 28-yanvarda Madrid shahrida dunyoning eng katta Xalqaro Sayohat Ko'rgazmasi FITUR o'tkazildi. Xalqaro Madrid turizm yarmarkasi 35chi marta o'tkazildi. Har yili 9107 dan ortiq 165 mamlakat sayohat kompaniyalari ishtirok etadi. O'zbekiston mazkur yarmarkada 10 yildan buyon qatnashib kelmoqda³⁰.

Xalqaro turizm ko'rgazmasi jahon jamoatchiligini mamlakatimiz sayyohlik sanoati bilan keng tanishtirish, xorijiy kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, manfaatli shartnomalar tuzish, turizm bozoridagi yangiliklar va o'zgarishlar bilan yaqindan tanishish, bu borada o'zaro fikr va tajriba almashish imkonini beradi³¹.

2.3 O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish

Bugungi kunda turizm sohasi jahondagi muhim iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. So'ngi yillar davomida turizm kuchli va barqaror iqtisodiy faoliyat sifatida e'tirof etilishi bilan birga, jahon iqtisodiyotining 2009-yildagi moliyaviy tanazzuldan keyingi tiklanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro turizm eksporti xizmatlar bo'yicha jahon eksportining 30% ini, tovar va xizmatlar

²⁹ www.Uzreport.Axborot agentligi 09.12.14


³⁰ TOURFAIR.UZNews Uzbekistan at the tourism fair FITUR - 2015

³¹ www.Uzreport.Axborot agentligi 09.12.14

eksportining 6%ini tashkil etadi. Dunyo eksporti tarkibida turizm yoqilg'i, kimyo sanoati, oziq-ovqat va avtomobil sanoati eksportidan keyin 5- o'rinda turadi.³² Turizm iqtisodiyotining yana bir ahamiyatli jihat shundaki, 2014-yilda ham tanazzuldan keying ketma-ket beshinchi yil uzluksiz o'sishga erishdi va jahon iqtisodiyotiga 7,6 trl.AQSH dollari³³ miqdorida mahsulot va xizmatlar hamda 277mln ish o'rinlari bilan salmoqli hissa qo'shdi.

2.3.1 – chizma

Xorijiy sayyohlar soni dinamikasi³⁴



Jahon turizm tashkiloti (JTT – UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2015 – yilda dunyo bo'ylab xalqaro turistlar soni 1.184 mln kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2014 – yildagiga nisbatan 50 mln kishi yoki 4.4% ga ortiqdir. Xalqaro turizm tushumlari 2014 – yilda 4% ga o'sdi va 1245mlrd AQSH dollarini tashkil etdi.³⁵ Xalqaro turistlar soni va xalqaro turizm tushumlari o'sish sur'atlarining deyarli

³² WEF.(2015). The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015: Growth through shocks. (<http://www.weforum.org/reports/travel-tourism-competitiveness-report-2015>)

³³ Jahon YaIMining 10%i

³⁴ UNWTO.(2015).World tourism barometer – 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)

³⁵ UNWTO.(2015).World tourism barometer – 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)

tengligi ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchliligi bilan asoslanadi. Turizm iqtisodiyotining jahon miqyosidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda, turizm sohasidagi nufuzli tashkilotlar va olimlar tatqiqotlarini o'rganish asosida jahon turizm bozorida shakllangan eng muhim tendensiya o'ntaligi aniqlandi. Ularning aksariyati O'zbekiston xalqaro turizm bozorining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Shuning uchun yurtimiz turizm bozorida bu tendensiyalarni e'tiborga olgan holda faoliyat yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyida mazkur o'nta tendensiyaning batafsil sharhi keltirilgan.

Birinchisi, xalqaro yo'lovchi tashuvlarida havo transporti ahamiyatining o'sib borishi. JTT ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlarning aksariyati o'z manzillariga havo transporti vositasida (54%), qolganlari esa avtomobil transporti (39%), temir yo'l (2%) va suv transportida (5%) harakatlanadi³⁶. Havo transportiga talabning o'sish sur'atlari boshqa transport turlariga nisbatan yuqori bo'lganligi uchun xalqaro yo'lovchi tashuvlarida havo transportining ulushi ortib bormoqda va ushbu tendensiya uzoq muddatli kelajakda ham saqlanib qolishi kutilmoqda.

Ikkinchisi, xalqaro turizm bozorida "ta'til, rekreatsiya va hordiq chiqarish" maqsadi, 14%i " xizmat safari va boshqa professional xizmatlar", 27% " do'st va qarindoshlarni ziyorat qilish", diniy ziyoratlar, davolanish maqsadlari va yana 7%i boshqa sabalar bilan sayohatga chiqqanligi aniqlangan.³⁷

Bozorning mazkur segmentlari orasida "Ta'til, rekreatsiya va hordiq chiqarish" segmentining yuqori o'sish sur'atlari bir necha yillardan buyon saqlanib kelayotganligi e'tirof etildi. Uchinchisi, Osiyo va Tinch okeani hududidagi davlatlarning xalqaro turizm bozoridagi ulushi ortib borayotganligi. 2014-yilda alqaro tashrif Ushbu minbuyuruvchilarning 52%i- Yevropa, 23%i Osiyo va Tinch okeani, 15.5%i-Amerika, 5.1%i-O'rta Sharq, qolgan 4.7%i esa Afrika davlatlari hisobiga to'g'ri keldi.³⁸ Nisbiy jahatdan esa Amerika qit'alari (+8%) eng yuqori

³⁶ The same source


³⁷ The same source

³⁸ UNWTO.(2015).World tourism barometer – 2015. Vol.13.
(http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)

o'sish sur'atiga erishdi, undan keyingi o'sish sur'atlari Osiyo va Tinch okeani mintaqasi (+5%) va O'rta Sharqda(+5%) kuzatildi.


2.3.2 - chizma

Xalqaro tashrif buyuruvchilarning qit'alar bo'yicha ulushi³⁹



³⁹ UNWTO.(2011). Tourism towards 2030: Global overview.(<http://publications.unwto.org>)

2010-yil



2030-yil bashorati

JTT Osiyo va Tinch okeani qit'asining xalqaro turizm o'sishida kuzatilayotgan yuqori o'sish sur'atlari kalajakda ham saqlanib qolishini progniz qilmoqda. Ushbu mintaqaning xalqaro turizmdagi ulushi 2030-yilda 2010-yildagiga nisbatan 8%ga ortishi hamda 30%ga yetishi kutilmoqda.

To'rchinchisi, Yevropa va Amerika mamlakatlari bilan birga Osiyo davlatlarining ham turizm bo'yicha dunyoning eng ilg'or davlatlari qatoriga kirayotganligi. Tashrif buyuruvchilar absolyut miqdori dunyo bo'yicha Fransiya (83.7mln kishi) yetakchilik qilayotgan bo'lsa, ushbu reytingda AQSH (74.8 mln kishi) ikkinchi, Ispaniya (65.0 mln kishi) uchinchi o'rinlarda turibdi. Mazkur o'ntalikda Osiyo davlatlaridan bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi (55.6 mln kishi) ham munosib o'rin olgan.

JTT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo mamlakatlari orasida turizm tushumlari bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan ispaniyadan 2 barobar katta farq bilan AQSH yetakchilik qilmoqda. Tashrif buyurgan turistlar soni bo'yicha yetakchi bo'lgan Fransiya esa bu reytingda 3-o'rinni egallab kelmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida

AQSH va Ispaniyada turistlar sayohati davomiyligining uzunroq bo'lganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, turizm tushumlari bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga Osiyo va Tinch okeani mintaqasi davlatlaridan Xitoy Xalq Respublikasi (51.7mlrd dollar), Tayland va Gonkong (38.4 mlrd dollar) davlatlari ham o'rin olgan. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi chiquvchi turizm borasida ham katta salohiyatga ega hisoblanmoqda. JTTning prognozlariga asosan, bu hudud 2030-yilga kelib 531 mln sayohat manbasi bo'lib xizmat qiladi.⁴⁰

2.3.3 – jadval

Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha yetakchi davlatlar⁴¹

	Mamlakat	2013-yil (mln)	2014-yil (mln)	O'sish 2013/201 2 %	O'sih 2013/201 4 %	Turizm raqobatbardoshli k reytingda o'rin(2015-yil)
1	Fransiya	83.6	83.7	2.0	0.1	2
2	AQSH	70.0	74.8	5.0	6.8	4
3	Ispaniya	60.7	65.0	7.1	7.1	1
4	Xitoy	55.7	55.6	-3.5	-0.1	17
5	Italiya	47.7	48.6	2.9	1.8	8
6	Turkiya	37.8	39.8	5.9	5.3	44
7	Germaniya	31.5	33.0	3.7	4.6	3

⁴⁰ UNWTO.(2011). Tourism towards 2030: Global overview.(<http://publications.unwto.org>)

⁴¹ WDI database hamda WEFning "The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015" ma'lumotlari asosida

8	Buyuk Britaniya	31.2	32.6	6.4	5.0	5
9	Rossiya	28.4	29.8	10.2	5.3	45
10	Meksika	24.2	29.1	3.2	20.5	30

Navbatdagi, 2.3.4 – jadvalda esa xalqaro turizm tushumlari bo'yicha yetakchi mamlakatlar ro'yxati ko'rsatilingan.

2.3.4 - jadval

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha yetakchi mamlakatlar⁴²

O'rin	Mamlakat	2013- yil mlrd	2014- yil mlrd	O'sish 2013/2012 %	O'sish 2013/2014 %	Turizm raqo- batbardoshlik reytingda o'rni (2015-yil)
1	AQSH	172.9	177.2	7.0	2.5	4
2	Ispaniya	62.6	65.2	7.6	4.2	1
3	Xitoy	51.7	56.9	3.3	10.2	17

⁴² WDI database hamda WEFning "The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015" ma'lumotlari asosida


4	Fransiya	56.7	55.4	5.6	-2.3	2
5	Makao	51.8	50.8	18.1	-1.9	
6	Italiya	43.9	45.5	6.6	3.7	8
7	Buyuk Britaniya	41.8	45.3	12.1	10.3	5
8	Germaniya	41.3	43.3	8.2	5.0	3
9	Tayland	41.8	38.4	23.4	-8.0	35
10	Gonkong	38.9	38.4	17.7	-1.4	13

Turizm bozoridagi zamonaviy tendensiyalarning beshinchisi- turizm oqimlarining o'sishida turizm raqobatdoshligining hamda turizm sohasidagi investitsiyalar ahamiyatining ortib borayotganligidir. Turizm sohasida davlatlar raqobatbardoshligi reytingi 2007-yildan buyon Jahon iqtisodiy forumi (WEF), JTT va boshqa qator nufuzli tashkilotlar hamkorligida ishlab chiqiladi.

2.3.5 – chizma

Chiquvchi turizm manbalarining qit'alar bo'yicha o'sishi⁴³

⁴³ WDI database hamda WEFning "The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015" ma'lumotlari asosida



2.3.6-chizmada xalqaro tashrif buyuruvchilar soni turizm raqobatbardoshligi indeksining o'zaro aloqadorligi ko'rsatilingan. 2.3.7-chizmada esa xalqaro tashrif buyuruvchilar soni va turizm investitsiyalarining o'zaro aloqadorligi scatter-diagramma ko'rinishida tasvirlangan. Turistik oqimlarning o'sishi va investitsiyalar bog'liqligini qabul qiluvchi davlatlarda umumiy hamda turistik infratuzilma, xususan joylashtirish muassasalarning mos ravishda o'sib borishining zaruriyati bilan ifodalanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Iqtisodiy Xamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga (IXTT) a'zo davlatlarda mehmonxona fondi 2008-2012 yillar mobaynida yillik o'rtacha 2.7%ga o'sgan. Mazkur soha Yaponiya, Turkiya, Chili va Polsha davlatlarida juda tez sur'atlarda rivojlandi. IXTT tarkibiga kirmagan davlatlardan Rossiya va Hindistonda ham mehmonxona joylari sezilarli darajada oshdi. Biroq bu davlatlar xanuz 1000 kishiga to'g'ri keluvchi mehmonxona joylari soni bo'yicha IXTT davlatlaridan ortda qolmoqda. Oltinchisi, xalqaro turizmda "Xitoy omili" ning kuchayishidir. Bugungi kunda turizmga eng ko'p mablag' sarflovchi sayyohlar Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlaridir (164.9 mlrd dollar), ularning dunyo turizm bozoridagi ulushi 13.2% ga teng. Nisbatan yaqin vaqtlarda

ham Osiyo turistlari asosan Yaponiya, Koreya va Gonkong aholisidan tashkil topgan edi, biroq shu o'n yillikning boshiga kelib, Yaponiya yetakchilikni Xitoy Xalq Respublikasiga topshirdi.⁴⁴

Xozirgi vaqtda xalqaro turistlarning har o'ntasidan bittasi xitoylikdir. Shu sabab, qabul qiluvchi davlatlar ham xitoylik mehmonlarning xulq-atvorini o'rganish va munosib kutib olishga xarakat qilmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, xitoyli turistlar sayohatlarning 90 %i Osiyo davlatlari hisobiga to'g'ri keladi. Turizm sohasida Xitoydan keyin turizmga eng katta xarajat qiluvchi davlatlar AQSH va Germaniya bo'lib, ularga dunyo turizm xarajatlarning 8.9%i hamda 7.4%i to'g'ri keladi. Ushbu reytingda 5-o'rinni Rossiya Federatsiyasi egallagan bo'lib, jahon turizm bozorining 4.0% xarajati Rossiya aholisi hisobiga to'g'ri keladi.

Turizm sohasida fuqaro jon boshiga eng ko'p mablag' sarflaydigan davlatlarga Germaniya (1137 dollar), Avstraliya (1114 dollar), Kanada (951 dollar) va Buyuk Britaniya (893 dollar) davlatlari fuqarolarining jon boshiga turizm xarajatlari yuqorida ko'rsatilgan davlatlarga nisbatan sezilarli darajada pastdir. Bu o'rinda xalqaro turizmga nisbatan yangi shakllanayotgan bozorga ega davlatlar Braziliya va Xitoyda turizm xarajatlari eng past bo'lishiga qaramasdan, o'sish sur'atlari yuqoridir.

Shunindek, kelusi 10 yil ichida Sinapur, Gonkong, Hindiston, Indoneziya, Malaziya, Qatar, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya va Tayvan davlatlari ham jahon turizm xarajatlari reytingida sezilarli ravishda yuqoriora ko'tarilishi kutilmoqda. Yettinchisi, turizm siyosatini yuritish va strateik rejalashtirishda mahalliy, hududiy va xalqaro miqyosda yetakchilik qilish zaruriyatining oshib borishidir. Mazkur tendensiya tufayli mintaqalar, davlatlar hamda davlatlar ichidagi alohida hududlar ham turizm rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Ularda raqib destinatsiyalar aniqlanishi va chuqur tahlil qilinishi bilan raqiblar orasida yetakchilik qilish uchun zarur resurslar va chora-tadbirlar aniqlanmoqda.

⁴⁴ Тяпышев ОГ Международный туризм- рост в посткризисный период и перспективы до 2030г

Xavfsizlik turizm uchun yana bir muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Sayohat uchun xavf-xatarlar shartli ravishda jinoyat, sog'liq uchun xatarlar,, mahalliy sayohat bilan bo'liq xatarlar, tabiiy ofatlar hamda siyosiy vaziyat guruhlariga bo'linadi.⁴⁵ So'ngi yillarda qator mashxur turistik destinatsiyalarda beqaror siyosiy vaziyat tufayli turistik oqimlar intensivligi kamaydi, ayniqsa “arab bahori” to'liqlari tarqalgan davlatlarda turizm sanoati jiddiy talioafatlar ko'rdi. Turizmda barqarorlikni ta'minlash hamda atrof muhitga zarar yetkazmaslik bilan dunyo aholisining ilmiy-madaniy salohiyati ortib borishi natijasida, to'qqizinchi – ekologik hamda tarixiy – madaniy turizm ahamiyatining oshishi tendensiyasi yaqqol kuzatila boshlandi. Turizm bozoridagi umumiy o'sish 4-5%ni tashkil etsa, ekoturizm o'sish sur'atlari 20-305ga yetib boradi. Ekoturizm bozorida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlariga qiziqish yuqoridir. Bu bozorning eng yirik iste'molchi davlatlari Germaniya, Yaponiya va Italiya hisoblanadi.

So'ngi guruh bo'lib, sayohatlar soni o'sishi sekinlashib, individual turizm ahamiyatining o'sishidir. So'ngi yillardagi eng sezilarli tendensiyalardan biri turistlarning o'z sayohatlarining mustaqil ravishda tashkil etishlaridir. Shu sabab jahon miqyosida turoperatorlar xizmatiga talab keskin qisqarib bormoqda, muvaffaqiyatli destinatsiyalarda esa turistlar uchun turistik markazlar tashkil etilishi, xarita, yo'riqnomalar tarqatilishi, ko'chalarda yo'l ko'rsatuvchi belgilar o'rnatilishi tobora rivojlanishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, turizm sohasida kuzatilayotgan eng muhim xalqaro tendensiyalar alohida davlatlar va hududlar turizm siyosatini belgilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.⁴⁶

III BOB. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

3.1. O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining zamonaviy holati

⁴⁵ Mansfeld, Y& Pizam A. (Eds) (2006) "Tourism, security and safety" From theory to practice (pp. 139-141) Amsterdam: Elsevier

⁴⁶ www.BPK.UZ 12/2015. ISSN 2010-6580

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integrasiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyoti tajribalaridan ma'lumki, turizm sohasi mamlakat xazinasi uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'ri, nihoyatda qulay, tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, urf-odatlariga ega bo'lgan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin egallaydi.

Ammo xalqaro turizm taraqqiyoti darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmas chora tadbirlarni belgilash va ularni jadallik bilan hayotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda ajoyib qurilish inshootlari, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgoxlar vujudga keldi. So'nggi yillarda respublikamizda o'zbek milliy kurashi, tennis va boshqa sport turlari bo'yicha jahon miqyosida chempionatlar o'tkazildi. Bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlar kelishiga olib keldi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillarning roli ham anchagina.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning rivojlanishi, unga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga siljishi bilan belgilanadi. Respublikamiz sharoitida, ayniqsa o'rta va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda turizmning imkoniyatlari boshqa sohalarga qaraganda juda kattadir. Chunki respublikadagi iqtisodiy barqarorlik va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tilishi tadbirkorlarga keng yo'l ochishi bilan birga uni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini tug'dirmoqda. Jahondagi har bir davlatning iqtisodiy yuksalishida eng asosiy omil -tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik va ijtimoiy adolatdir. O'zbekiston hozir Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan davlat bo'lib, o'ziga tadbirkorlar va ishbilarmonlarni, turistlarni jalb qiluvchi makonlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan 1999 yil 15 aprelda "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi"ga imzo chekildi. Bu dastur mamlakatimizning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turistlarga xizmat ko'rsatishning g'arbdagi zamonaviy andozalarini ham, sharqdagi mehmondo'stlik ananalarini ham o'zida mujassam qilgan milliy turizm modelini shakllantirish uchun yanada keng imkoniyatlarni yaratadi.⁴⁷


O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib bormoqda. Ushbu milliy model birinchi navbatda ichki imkoniyatlarni, o'zbek xalqining mentalitetini va jahon andozalariga mos keladigan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu haqda, masalan, respublika hududida mavjud bo'lgan 4000 dan ortiq qadimiy me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorliklarning umumiy soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan.

3.1.1 - chizma

Turizmning YaIMdagi va ishchi kuchidagi ulushi⁴⁸

⁴⁷ Xalqaro turizm Toshkent 2009

⁴⁸ World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan



Izoh: Diagrammada ko'rsatilingan "Direct" ko'rsatkichi joylashtirish vositalari, transport tizimi, sayr tomosha sektori, ovqatlantirish korxonalarining ulushini ifodalaydi. Bunda mablag' manbalari asosan rezidentlarning ichki turizm va sayohat xarajatlari, biznesning ichki sayohat xarajati, sayohat eksporti va yakka tartibdagi xususiy turistik tashkilotlar sarflaridan kelib chiqadi.

Turizm rivoji nafaqat mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortishi, aholi bandligini ta'minlash va daromadlari o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yangi barqaror hamda yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlari yaratish borasida turizm imkoniyatlari ancha yuqori ekanini ko'rsatadi. Turizm aholi bandligini ta'minlash, ayni paytda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbaiga aylanmoqda. Bugunga kelib mamlakatimizda mehmonxona xo'jaligi yanada taraqqiy etmoqda. Xususan, 500 dan ortiq turli mulkchilik shaklidagi mehmonxona va joylashtirish ob'ektlari faoliyat ko'rsatayapti. Keyingi 6 yilda 200 dan ortiq o'rta va kichik xususiy mehmonxonalar ishga tushgan.


Hozirda respublikamizda 865 ta turistik tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Faoliyati asosan chet ellik sayyohlarni jalb etish va ularga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan 520 ga yaqin turistik kompaniya muvaffaqiyatli ishlab turibdi. 2015 yilda sayohat va turizm sohasining bevosita ulushi 1mlrd 368.1 million so'mni umumiy YaIMning 0.9%ini tashkil etdi. Bu raqamlar turizm sohasini rivojlantirish

orqali aholi bandlik darajasi va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari yuqori ekanini yana bir bor ko'rsatib turibdi.

Xalqaro turizm sohasi respublikamiz iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlaydi. Turizmning respublika iqtisodiyoti uchun qanchalik zarur tarmoq ekanligini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

3.1.2 - chizma

Turizm va sayohatning mamlakat YaIMdagi ulushi⁴⁹




umumiy YaIMning 0.9% ini tashkil etdi. Bu miqdor 2015 – yilda 1mlrd 368.6 million so'mni tashkil etdi. Bunda iqtisodiy faoliyat turistik sanoatlar hisobidan asosan mehmonxonalar, turagent firmalari, havo yo'llari va boshqa yo'lovchi tashish xizmatlari tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, ovqatlantirish korxonalari, sayr tomosha sektori va boshqa bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish uchun mo'ljallangan sanoatlar ham shular jumlasidandir. Ushbu keltirilgan raqamlar YaIMdagi bevosita ulushni ifodalaydi. 2014 – yilda sayohat va turizmning YaIMdagi umumiy ulushi 4mlrd 208.8 million so'mni, YaIMning umumiy 3%iga teng bo'ldi va 2015 – yilda bu miqdorning 4mlrd 408 million so'mga, umumiy YaIMning 2.9% ga teng bo'lishi rejalashtirilgan edi.

3.1.3 - chizma

⁴⁹ World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan

Sayohat va turizmning umumiy ishchi kuchidagi ulushi⁵⁰



Sayohat va turizm bevosita ulushi 2014 – yilda 118.500 ish o'rniga ya'ni umumiy ishchi kuchining 0.8% ga ega bo'ldi va bu ko'rsatkich 2015 – yilda 1.3%ga 120.000 ish o'rniga oshishi, umumiy ishchi kuchining 0.8%ini tashkil etishi rejalashtirilgan edi. Sayohat va turizmning ishchi kuchidagi umumiy ulushi 2014 – yilda 387.500 ish o'rni umumiy ishchi kuchining 2.6%iga teng bo'ldi. 2015 – yilda bu ko'rsatkich 2%ga oshishi ya'ni 395.000 ish o'rniga ega bo'lishi va umumiy ishchi kuchining 2.5%ini tashkil etishi ko'zda tutilgan .


2014-yilda dam olish maqsadida uyushtirilgan sayohatlar xarajatlari 1,596.7 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu sayohat va turizmning YaIMdagi bevosita ulushining 64,6% iga, biznes sayohat xarajatlari 35,4%ga ya'ni 876,5 mlrd so'mga teng bo'ldi.

3.1.4 - chizma

Sayohat va turizm xarajatlarining YaIMdagi taqsimlanishi⁵¹

⁵⁰ World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan

⁵¹ The same source




Navbatdagi, diagrammada ichki va xalqaro turizm tushumlari ko'rsatilgan. Unga ko'ra, sayohat va turizmning YaIMdagi bevosita ulushining 78,8%ini ichki turizm, 21,2% tushum xalqaro turizm hissasiga to'g'ri keladi. 2015-yilda ichki turizm tushumi 6,3%ga o'sishi (2,072.0 mlrd so'm), xalqaro turizm tushumi 3,8%a o'sishi (503,9 mlrd so'm) rejalashtirilgan. Sayohat va turizm sanoatining YaIMdagi umumiy ulushi uning bevosita ulushidan 3 marta kattadir. Umumiy hissa bevosita, bilvosita va qo'shimcha ulushlar hisobiga shakllanadi. Bunda, bevosita ulush ta'minot zanjiri 25,6%, investitsiya 16,0%, davlat boji 6,8% jamlanishidan hosil bo'lgan.

3.1.5 – chizma

Sayohat va turizm YaIMdagi umumiy ulushining taqsimoti⁵²

⁵² World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan



Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda dam olish va madaniy xordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik ob'ektlarning ham mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib har yili o'n millionlab turistlarni o'ziga jalb kilib, muvaffaqiyat bilan ishlayotgan Yevropadagi parklarni olishimiz mumkin. Bular ichida Parij "Disleylend"ining faoliyatini tahlil qilganimizda har yili bu yerga o'rtacha 15 mln ga yaqin turistlar tashrif buyurishining guvohi bo'lamiz. O'zbekistonda ham shu kabi parklar sonini ko'paytirish imkoniyati yetarli hisoblanadi. Toshkentda 1997 yildan boshlab Disneylend va Akvapark faoliyat ko'rsatib kelmokda. Lekin bunday parklar sonini ko'paytirish, xizmat sifatini yaxshilash va faoliyatini yanada kengaytirish uchun chet el investisiyalarini jalb qilish, texnik imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi bu yo'lning eng samarali va kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlanishida turistik tashkilotlar va tadbirkorlarning o'rni kelajakda yanada ortib borishi kutilmoqda. Buni «O'zbekturizm» MK faoliyati misolida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda turistik firmalar ish jarayoni Milliy Kompaniya tomonidan nazorat qilinib borilmoqda. Bizga ma'lumki, jahon tajribasida turizmni rivojlantirish uchun quyidagi iqtisodiy modellar qo'llaniladi: markazdan boshqarish, bozor va monetar rivojlanish yo'llari. Respublikamizda turizm asosan markazlashgan boshqaruv usulida rivojlantirilmoqda.

3.1.6 – chizma

**184 mamlakat ichida O'zbekistonning 6 ko'rsatkichning o'sish darajasi
bo'yicha tutgan o'rni⁵³ (2015-yil holati)**

Sayohat va turizm sohasining ko'rsatkichlari	YaIMdagi bevosita ulushi	YaIMdagi umumiy ulushi	Ishchi kuchida bevosita ulushi	Ishchi kuchida umumiy ulushi	Investitsiya	Sayyohlik eksporti
O'sish darajasi	3,9%	4,7%	1,3%	2%	7,3%	-3,8%
O'rni	75	53	115	90	39	171

Jadvaldan ma'lumki, 2015-yilda 5ta yo'nalishda o'sishga erishilan. Xususan, sayohat va turizmning YaIMdagi bevosita va umumiy ulushlari sezilarli darajada oshgan. Ishchi kuchida ham 2% o'sish bilan jahonning 184 mamlakati ichida 90-o'rinni egalladi. Investitsiya ajratmasi bo'yicha ham 7,3%ga o'sishga erishib, 39 o'ringa chiqdi. Faqatgina, sayyohlik eksporti bo'yicha pasayish kuzatimoqda.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, eng avvalo ko'xna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi markazlar ustida to'xtab o'tish joiz. Ko'p mamlakatlarda O'zbekiston o'zining ana shu shaharlari ila mashhurdir. Bu shaharlarda qad ko'targan salobatni qurilish san'ati xorijdan kelgan turistlarni hayratga soladi. O'zbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini bemaolol «Sharqning javohirlari» deb atash mumkin.

Tarixiy Samarqand, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Rim, Misr yodgorliklari kabi o'zining go'zalligi, nazokati bilan hammani hayratga soladi. Samarqand 2007 yilda o'zining 2750 yilligini tantanali ravishda bayram qildi. Har yili dunyoning turli burchaklaridan kelgan yuz minglab sayyohlar ulardan zavq oladi.

Shaharda qadimgi me'morchilik san'atining ajoyib namunalari qatoriga Shohi-Zinda, Go'ri-Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Registon ansambli (maydoni), Ulug'bek rasadxonasi va bir qancha arxitektura yodgorliklarini va boshqalarni kiritish

⁵³ World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan

mumkin. Eng maftunkor va nisbatan yaxshi saqlangan Shohi-Zinda ya'ni "tirik shoh" ma'nosini anglatuvchi tarixiy ansamblning nozik va nafis chizmalari xar qanday kishini rom etadigan maqbaralar va masjidlardan iboratdir.

"Buyuk Ipak Yo'li"da joylashgan tarixiy va madaniy markazlar orasida Buxoro alohida ahamiyatga ega. Buxoro ham Samarqand kabi ko'plab sayyohlar e'tiborini tortgan qadimiy arxitektura yodgorliklariga boy, tarixiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega bo'lgan shahardir. O'zining 140dan ortiq arxitektura yodgorliklari bilan ma'lum va mashxur bo'lgan Buxoro O'rta Osiyoning boshqa har qanday shahardan ko'ra ko'proq qadimiy sharq shahri qiyofasini saqlab qolgan. Buxoro shahri Markaziy Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettirgan chinakam yilnomadir. Shahardagi har bir yodgorlik o'z sukunatida uzoq o'tmish sirlarini saqlab qolgan. Bu ajoyib shaharning yoshi bir necha o'nlab asrlar bilan o'lchanadi. Ma'lumki, 1995 yil kuzida Parijda YUNESKO konferensiyasining 28-sessiyasida Buxoro shahrining 2500 yilligini dunyo ko'lamida nishonlash haqida qaror qabul qilindi va ushbu anjuman katta tantanalar bilan o'tkazildi.

Qator asrlar davomida Buxoro, Turkiston o'lkasi shaharlari orasida yetakchi mavqeini egallab kelgan. Shahar rivojlanishining bu davri hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish texnikasi, fan, adabiyot, san'at taraqqiyoti bilan tasniflanadi. Bu yerda butun jahonga mashxur qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino va boshqalar yashagan va ijod qilgan. Buxoro musulmon dunyosida alohida o'rin egallaydi. Buxoroda tarixiy madaniy yodgorliklar juda ko'p bo'lib, ular Buxoroni muzey shahar deb atashga imkon beradi.

Zardo'zlik va shoyi to'qish xunarleri Buxoroni jahonga tanitgan. Mohir mahalliy ustalar yaratgan buyumlar-badiiy so'zanalar, ayollar kiyimlari, turli shoyi belbog'lar, zar do'ppilar, respublikamizdan uzoq-uzoqlarga ham mashhurdir. Buxoro jahonning qator mamlakatlaridan O'zbekistonga keladigan turistlarning ko'pini o'ziga jalb qiladi. Bu yerga kelayotgan turistlarning o'tgan yillardagi tahlilini hisoblab ko'rsak juda ko'p turistlar, ayniqsa musulmon davlatlaridan kelayotgan sayyohlar ko'pchilikni egallaydi. Bunga sabab, Buxoroda ikkinchi Makkayi Madina sifatida tan olingan Imom Al Buxoriy maqbarasining joylashganligidir.

Zamin turistlari diqqat-e'tiborini o'ziga qaratgan, ajoyib tarixiy obidalar markazi bo'lgan yana bir shahar bu Xivadir. Xiva arxitekturasi o'z shaklining salobatligi va bezaklarining nafisligi bilan kishini hayratga soladi. Shahardagi yodgorliklar maxalliy

ustalar va umuman Xorazm me'morlarining yuksak mahorati va muxandislik ishlari kishini o'ziga jalb etadi. Xiva barcha tarixiy yodgorliklarni kompleks tarzda mujassamlashtirgan Respublikdagi yagona vohadir. Shu sabab ham YUNESKO tomonidan Xivaga " ochiq osmon ostidagi muzey" deya ta'rif berilgan. Respublikamizning Toshkent, Andijon, Qo'qon, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlarida ham o'ziga xos bo'lgan tarixiy yodgorliklar anchagina ko'p.

Hozirgi kunda jahonning turli mamlakatlaridan keladigan ming-minglab turistlar uchun yo'nalishlar belgilangan. Milliy resurslardan oqilona foydalangan holda mazkur yo'nalishlarda faqat bizning yurtga xos raqobatbardosh xizmatlarni ko'rsatishni yangi darajaga ko'tarish orqali respublikamizga xorijiy turistlar oqimi va shu orqali valyuta tushumlarini oshirish imkoniyatidan foydalanish zarur.

3.2 O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning yo'nalishlari

Xalqaro turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatadigan iqtisodiy ta'siri o'zida turli xil yo'llarni ifoda etadi. Turistlarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga borishi nafaqat turizm sohasida, balki turistlar ehtiyojidagi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish sohalarida ham bandlik muammosini hal etishda muhim hissa birlashma, milliy va hududiy birliklar, birlashma va korxonalar, korporastiyalar, kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalari, uy xo'jaliklari hamda davlat hukumatlariga ham daromad keltiradi. Shunday qilib, turistlar mamlakatlardagi milliy infratuzilmalarning rivojlanishiga yaqindan ko'mak beradi.

Shuningdek, xalqaro turizm tashqi qarzning to'lanishiga ko'maklashishi orqali milliy to'lov balansiga ham hissa qo'ashadi. Xalqaro turizmning aynan mana shu xususiyati uning iqtisodiy mazmunini belgilab beradi. Chet ellik turistlar tovarlar va xizmatlarga to'lovni amalga oshirish orqali ularni qabul qilgan


mamlakat byudjetiga valyuta tushumini ta'minlab berishadi va bu bilan ushbu mamlakatning to'lov balansini faollashtirishadi.

Xalqaro turizm ijtimoiy-madaniy va xo'jalik-iqtisodiy majmuani faollashtiradi, kishilarning madaniy va ma'naviy hordiq chiqarishini ko'rsatiladigan xizmatlarning miqdori va sifati hamda madaniy xizmat ko'rsatish va hordiq chiqarish tadbirlarining turli-tumanligi bilan yanada boyitadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda, har qanday mamlakatning madaniyati ushbu mamlakatga tashrif buyuruvchi kishilar oqimining o'sib borishi hisobidan yanada rivojlanib boradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqaro turizm o'zidagi imkoniyat va resurslar manbai bilan mamlakatlar madaniyatining yanada boyib borishida muhim rol o'ynaydi.

Demak, xalqaro turizmning rivojlanishi mamlakat hayotiga asosan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi 3.2.1 – chizmada xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy ijobiy tomonlari ko'rsatilingan.

Xalqaro turizmni rivojlantirishning ijobiy tomonlari⁵⁴

3.2.1 – chizma



⁵⁴ World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan

Shuni aytib o'tish joizki, hozirgi zamonda xalqaro turizmning rivojlanishi jamiyatdagi muayyan ijtimoiy masalalarning hal etilishiga qaratilmoqda⁵⁵. Xalqaro turizmning muhim ijtimoiy vazifasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi: keng ko'lamdagi turistik xizmatlar ko'rinishida iste'molchilarga, ya'ni turistlarga birinchi navbatda nomoddiy ne'matlarni taqdim etish; aholining madaniy va ijtimoiy darajasini shakllantirish; millatlararo, davlatlararo va shaxslararo munosabatlarni kengaytirish; iste'molchilar, ya'ni turistlarning dam olishlarini ta'minlash, ularning hayotiy kuchlari va sihat-salomatliklarini qayta tiklash; aholi alohida guruhlarining manfaatlarini jamiyatning uzoq muddatli manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, masalan, qulay ekologik, ijtimoiy va madaniy muhitni asrash.

Biroq, xalqaro turizm rivojlanishining mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimi uchun ijobiy jihatlari bilan birgalikda bir qator salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, ularni quyida keltirib o'tamiz:

- ❖ xalqaro turizm asosan davlatlar chegaralarini kesib o'tish bilan bog'liq bo'lganligi uchun uning rivojlanishi natijasida ishchi kuchlarining noqonuniy migrastiyasi, xalqaro terrorizm, giyohvandlik moddalari va fohishalar savdosi va boshqa shu kabi ko'plab salbiy jihatlarining rivojlanishiga ham imkon yaratilishi mumkin;
- ❖ xalqaro turizmning mamlakat tashqarisiga yo'naltirilgan turizm shaklini ya'ni turistik importning rivojlantirilishi milliy pul birliklarining xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishiga imkon yaratadi;
- ❖ xorijiy turistlar oqimining katta bo'lishi mamlakatlardagi mahalliy tovarlar va xizmatlar baholarining, shuningdek, yer va boshqa tabiiy resurslar hamda ko'chmas mulk baholarining ko'tarilishiga ta'sir ko'rsatadi;
- ❖ xalqaro turizm rivojlangan hududlarda muayyan ekologik va ijtimoiy muammolar yuzaga keladi.

⁵⁵Биржаков М. Б. Введение в туризм: Учебник. – Издание 7-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Невский Фонд» - «Издательский дом Герда», 2007.

Umuman olganda, hozirgi kunda xalqaro turizm rivojlanishining mamlakatlardagi bu kabi salbiy jihatlarning bartaraf etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, turistik mamlakatlarning Butunjahon turizm Tashkiloti - BTT (World Tourism Organization - WTO), Xalqaro havo transporti uyushmasi (International Air Transport Association - IATA) va Xalqaro fuqarolik aviastiyasi tashkiloti (International Civil Aviation Organization - ICAO) kabi xalqaro turistik tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi bunday salbiy jihatlarning hamkorlikda hal etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Quyidagi keltirilgan SWOT tahlil O'zbekiston turizm sanoatining holatini to'liq ochib beradi, ya'ni mamlakatimiz turizm sohasining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlar darajasini bilish, shuningdek mazkur tarmoqni rivojlantirishda qanday to'siqlar mavjudligini to'liq anglash orqali uni yuksaltirishga erishish mumkin.

3.2.2 – chizma

O'zbekiston turizm sanoatining SWOT tahlili⁵⁶



Imkoniyatlari

- ❖ Jahonda chiqish turizmi tendensiyasi o'smoqda. BTT bashoratiga ko'ra 2020-yilda turistlarning chetga chiqishi 1mln 800mingni tashkil etadi;
- ❖ Shiddat bilan rivojlanayotgan Xitoy turizm bozori, hamda Rus bozori (BRIK) va Yaqin Sharq davlatlari;

To'siqlar

- ❖ Xorijiy turoperatorlarning ustuvorligi bahoni tushiradi (demping);
- ❖ Siyosiy va xavfsizlik borasidagi tavakkalchilik; Afg'onistondagi vaziyat xavfsizlik sharoitlarini yomonlashtirishi va mintaqaviy muammolar sababli qo'shnilar bilan keskinlikni oshoshi,

Yuqorida keltirilgan SWOT tahlilda ko'rsatilganidek, mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu yangi turizm yo'nalishlarini joriy etishdir. O'zbekiston katta turistik salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Demak, yurtimizda yangi turistik turlarni joriy qilish muammo tug'dirmaydi.

Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha, keyingi besh yilda ekologik turizmدا turistlar oqimi tobora ko'payib borayotganligi haqida hisob – kitob natijalari keltirilgan. Ushbu turizm yo'nalishida janubiy Yevropa, Janubiy – Sharqiy Osiyo, kichik Osiyo, Xitoy va Afrika qit'asidagi davlatlar oldingi o'rinlarda borishmoqda. Hozirgi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan turizm sohalaridan biriga aylandi.


O'zbekiston ham ekologik turizmga katta salohiyatga ega bo'lib, hozirda mamlakat hududida 3,8 mln. gektarga ega bo'lgan ovchilik – baliqchilik yer maydonlari, faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan, O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga» o'txo'r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan.⁵⁷

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekistonda hozirgi kunda 4148 tur o'simliklar mavjud. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha «O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish konsepsiyasi» qabul qilingan.

BMT va BTT tashkilotlarining ma'lumotlari bo'yicha, oxirgi 20 yil ichida endi rivojlanib borayotgan mamlakatlarda ekoturistlar soni ko'payib va undan olinadigan daromadlar yildan-yilga o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo'mitasining mutaxassislari O'zbekistonning ekoturistik rayonlari haritasini ishlab chiqishgan. Haritaga muvofiq, butun mamlakatimiz hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Har bir ekoturistik tumanga ekoturistik zona deb ham qarash mumkin.

Har bir rayon o'zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi. Navbatdagi keng ommalashayotgan turizm turi gastronomik sayohat hisoblanadi. Gastronomiya turizmi – bu mamlakatlar va qit'alar bo'ylab sayohat qilish hisoblanib, maqsadi mahalliy oshxona xususiyatlari bilan tanishish hamda kelgan sayyohlarga antiqa taom va mahsulotlardan tatib ko'rishga imkon yaratadi.

⁵⁷ Turizm asoslari 2015

O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari⁵⁸

Gastronomik tur xizmat sifatida nafaqat sayohat qilish bo‘lib hisoblanadi, balki dunyoning boshqa biror joyida takrorlanmaydigan va betakror ta‘mga ega bo‘lgan masalliklardan tarkib topgan ma‘lum bir hududdagina uchrovchi taomlarni tatib ko‘rishga qaratilgan tadbirlar majmuiga kiradi. Gastronomiya turizmi turiga qiziqish yildan-yilga oshib bormoqda. Bu qiziqish ko‘proq Buyuk Britaniya, Italiya va Peruda keng ommalashib, yildan-yilga gastroturistik marshrutlar ishlab chiqqan mamlakatlar soni tabora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda «Umumiy ovqatlanish tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha» Qarori⁵⁹ga asosan O‘zbekiston oshpazlar uyushmasi qoshida milliy oshpazlik san‘ati xalqaro

⁵⁸ Xarita O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat ko‘mitasi muttaxislari tomonidan tuzilgan.


⁵⁹ "Umumiy ovqatlaniş tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy dаражасини ошириш чора- tadbirlari tўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилдаги 289-сонли Қарори.

Markazi tashkil etilishi yurtimizda yashil gastroturizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Bugungi kunda aholi qatlamining quyidagi vakillari gastronomik turistlarni hosil qiladi:

3.2.4 – chizma

Gastronomik turistlarning tarkibi⁶⁰



Shuni ta'kidlash joizki, har bir davlatni o'ziga xos gastroturizm salohiyati mavjuddir. Gollandiya, Shvesariya va Italiyaga pishloqli turlarda sayohatchilar pishloqlarni eng sara navini tatib ko'rishi va pishloqli yarmarkalarga tashrif buyurishsa, Germaniya, Avstriya, Chexiya, Belgiya bo'ylab pivo turlarida bu ichimlik ishqibozlariga pivoning turli-xilligidan tashqari, pivo tayyorlanish xonalari, mashhur pivo barlari va festivallarga tashrifi bilan ham ajralib turadi.

So'ngi yillarda yana bir yangi yo'nalish qishloq turizmining ko'p faoliyatligi natijasida jahonda uning ommaviyligini tobora oshib bormoqda. Qishloq turizmida turistlar qishloq aholisi bilan birga yashaydi, ko'p hollarda birga ishlaydi, ularning


⁶⁰ Mamatqulov X.M, Bektemirov A.B, Norchayev A.N "Xalqaro turizm" darslik Toshkent-2009

turmush kechirishi, hayot tarzi bilan qiziqadi. Yurtimizda qishloq turizmini rivojlantirishda asosan Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya modellaridan foydalaniladi.

Demak, O'zbekiston turizm sohasining yangi yo'nalishlari sifatida quyidagilar yuqori rivojlanish imkoniyatiga egadir.

3.2.5 – chizma

O'zbekiston turizm sohasining yuqori potensialga ega yangi yo'nalishlari⁶¹



Ma'lumki, yurtimizda asosan tarixiy- madaniy va diniy turizm shakllari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu sababdan ham tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyatini "3-yosh" vakillari tashkil etadi. Ammo, xorijiy sayyohlarning asosiy qismi yoshlardan iborat. Shu bois, mamalakatimizda ekologik turizm, sport turizm, gastronomik turizm va qishloq turizmi kabi yangi yo'nalishlarni takomillashtirish yoshlar qatlamini jalb qilishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

⁶¹ Mamatqulov X.M, Bektemirov A.B, Norchayev A.N "Xalqaro turizm" darslik Toshkent-2009

3.3 Mamlakatimizda xalqaro turizm industriyasini rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Shu bilan bir vaqtda xalqaro turizmni rivojlantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar quyidagilardan iborat:

- ✚ xalqaro turizmga kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatidan keng foydalanish va xalqaro bozorlarga chiqishga intilish;
- ✚ mahalliy axborot agentliklari orqali rivojlangan mamlakatlarni O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilish;
- ✚ turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarni chet ellarda bir yilda kamida bir marta malaka oshirishga yuborish, o'qitish, ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratib, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- ✚ respublikamiz vakillarining Yevropa mamlakatlarida o'tkaziladigan turistik yarmarkalarda doimiy ravishda ishtirok etishini ta'minlash;
- ✚ xalqaro turistik tashkilotlar bilan axborot almashishni yaxshilash, birgalikda faoliyat yurita oladigan davlatlar bilan qo'shma korxonalar tuzish va ular faoliyatini keng yo'lga qo'yish;
- ✚ ichki turistik bozorda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Demak, xalqaro turizmni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lib, uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turizm sohasi orqali aholining moddiy farovonligini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini tashkil qilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlanishida turistik tashkilotlar va tadbirkorlarning o'rni kelajakda yanada ortib borishi kutilmoqda. Buni «O'zbekturizm» MK faoliyati misolida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda respublikada 865 dan ortiq turistik tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning ish jarayoni Milliy Kompaniya tomonidan nazorat qilinib borilmoqda.

Mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Zero, har qanday yangi turistik

mahsulotga, avvalo, mahalliy sayyohlarda qiziqish uygʻotib, soʻngra uni xorijiy sayyohlarga taqdim etish samarali yoʻl ekanligi xalqaro tajribada tasdigʻini topgan. Masalan, jahon sayyohlik sanoatida yetakchi oʻrinni egallagan Fransiyada aholining 90 foizi mamlakat boʻylab sayohat qiladi. Ushbu davlatga keluvchi xorijiy sayyohlar soni esa 2014-yil yakuni boʻyicha 83,7 millionga yetganligi kuzatildi. Umuman olganda, biror mamlakat miqyosida turizm intensivligi 50 foizdan oshsa, yaʼni mamlakat umumiy aholisining 14 yoshdan katta qismining yarmidan koʻpi bir yilda hech boʻlmaganda bir marotaba sayohat qilsa, bu oʻsha mamlakatda turizm ommaviy tus olganidan dalolatdir.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sayyohlik sohasini taraqqiy ettirish borasida olib borilayotgan keng koʻlamli ishlar jarayonida ichki turizmni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda va bu borada qator hududiy dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Sayyohlik xizmatlari koʻrsatish sohasiga madaniyat, telekommunikatsiya, savdo, ovqatlanish, sanoat sohasi tashkilotlari hamda muassasalari, ommaviy axborot vositalari faol jalb etilmoqda. Mamlakatimizda ichki turizm salohiyatini keng targʻib etish, hududlardagi sayyohlik bazalari, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriy va kurortlar, rekreatsion va ekoturistik tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda sayyohlik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilmoqda.

Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Margʻilon singari shaharlarimizda xalqimizning boy tarixi haqida hikoya qiluvchi qadimiy obidalar avaylab saqlanayotganligi hamda milliy hunarmandlik markazlari faoliyat

ko'rsatayotgani mazkur hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni ham jadal rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizning chekka hududlari, xususan, Orolbo'yida ham ichki turizmni rivojlantirish ishlari doirasida yangi sayyohlik yo'nalishlari tashkil etilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi qadimiy qal'alar hamda diqqatga sazovor joylar bo'ylab uch yo'nalishda sayohatlar taklif etilmoqda. Xususan, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ustyurt kengliklaridagi sayg'oqlar yaylovi, Sudoche ko'lining saqlanib qolgan akvatoriyasiga sayohatlar uyushtirilmoqda. "Sahrolar ichra o'tmish sadolari", "Orolga sayohat", "Tilaklar qudug'i", "Ipak ipi mo'jizasi", "Qoraqalpog'istonning qadimiy qal'alari" kabi dasturlardan iborat yo'nalishlar sayyohlarga ko'proq ma'qul kelmoqda.


Orolbo'yiga sayyohlarni yanada ko'proq jalb etish maqsadida mintaqaning tabiiy iqlim sharoitidan oqilona foydalanilib, yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, tabiiy suv havzalarida baliq, o'rdak ovlash bo'yicha yangi sayyohlik yo'nalishlari tashkil etilgan. Shuningdek, "Mizdaqxon qal'a", "Tuproqqal'a", "Ayozaqal'a", "Chilpiq" kabi qadimiy yodgorliklar, Amudaryo sohili bo'ylab ekologik turlar tashkil etilmoqda.

Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yo'nalishdan iborat bo'lib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlang'ich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlari tanlab olingan. Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion – dam olish va sog'liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi ko'plab resurslar mavjud. Hududning tog' ekotizimi, arxeologik yodgorliklari u yerda ekologik, speleologik (g'orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang'ida uchish, piyoda sayohat, tog' velosipedini rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qiziqarli ikki turistik

yoʻnalish ishlab chiqildi. Sayyohlarga yuqori darajada xizmat koʻrsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shoxobchalari bilan aloqalar yoʻlga qoʻyildi.⁶²

Demak, Oʻzbekistonning turistik salohiyatini chuqur oʻrangan holda quyidagi turizm turlarini takomillashtirish orqali mamakatimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini ortishiga erishish mumkin.

3.3.1 – chizma



Keyingi yillarda olimlarning tekshirish ishlari natijasida jahon turizmida yangi joylarni, tarixiy obidalarni koʻrish, bilishga qiziqish oʻrnini xalq amaliy sanʼatiga, oddiy xalq hunarmandlarining asarlariga boʻlgan qiziqish egallamoqda. Ana shunday oʻzgarishni Oʻzbekistonga kelayotgan turistlarning qiziqishlarida ham sezish mumkin. Ularning diqqatini tarixiy-meʼmoriy yodgorliklar bilan bir qatorda xalq hunarmandchiligini va milliy taomlarimiz ham oʻziga tortmoqda.

⁶² “Oʻzbekturizm” MK maʼlumotlari asosida

Turistlarga o'zbek milliy hunarmandchiligi hisoblanmish misgarlik, ganj o'ymakorligi, kulolchilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, zargarlik san'ati bilan tanishtirishni yo'lga qo'yish lozim. O'z navbatida turistlarning bu sohaga talabini o'rganib chiqib, kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Turizm sohasida hamkorlik qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi, mintaqaviy resurslardan yaxshiroq foydalanishga, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi. Turistik xo'jalik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va uni yaxshilashga yordam beradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish orqali xo'jalikning jadal rivojlanishi, uni iqtisodiy ahamiyatini o'sishi turistik xizmat sohasining katta foyda keltira olishi, bu sohaga sarmoyalarni ko'plab sarflanishiga olib keldi. Kapitalni ko'p talab qilishiga qaramay, turistik xo'jalikka sarflangan kapital juda foydalidir, chunki u o'zini nisbatan tez qoplaydi. Xorijiy turistlardan olinadigan pul tushumlari daromadga aylanadi va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida muomalada bo'ladi.

Ayrim g'arb iqtisodchilarining baxolashlariga ko'ra, xorijiy turistlardan olinadigan pul tushumlari muomalada yilda uch-besh marta va katta ko'proq aylanadi. Turistik xo'jalik jahon iqtisodiyotining eng serdaromad tarmog'i hisoblanadi. Xalqaro turizm sohasining yetakchi kichik tarmog'i bo'lib, ichki infrastruktura, servis va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga bog'liq bo'ladi⁶³.

O'zbekiston turizmi oldida turgan asosiy vazifa xorijiy investorlarni mumkin qadar ko'proq jalb qilishdan iboratdir. Bu investorlarni O'zbekistonning ular uchun ayni o'z sarmoyalarini bajonidil va ishonchli sarflashlari mumkin bo'lgan joy ekanligiga ishontira olish, buni isbotlay olish lozim. Bevosita xorijiy investistiyalarni qo'shma korxonalar tashkil qilish, turistik komplekslarni hamkorlikda qurish va ulardan foydalanish maqsadida keng ko'lamda jalb qilish,

⁶³ www.wttc.org – Всемирный Совет по путешествиям и туризму. 2007

ishlayotgan ob'ektlarni qayta ta'mirlash va zamonaviylashtirish turizmni rivojlantirish siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Respublikamiz turizmini xorijiy investitsiya bilan ta'minlashning ustivor yo'nalishlari qatoriga transport, telekommunikatsiyalar, axborot xizmatlari, tadbirkorlik infrastrukturasi va turizm servisidan tashkil topgan turizm infrastrukturasi shakllantirishni kiritish mumkin. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Serqayosh osmon va serjilo qorli cho'qqilarning ajoyib uyg'unligi, go'zal manzaralar, qulay shart sharoitlar, tarixiy joylar va qadamjolarining ko'pligi va g'oyatda qulay geografik joylashganligi respublikamizda turizmni rivojlantirish uchun yetarli omildir.

O'zbek turizmining asosiy vazifasi ana shu investitsiyalarni O'zbekistonga yo'naltira olishdan iboratdir. Turizmning iqtisodiy ahamiyatini mamlakat miqyosida ham, alohida mintaqalar uchun ham yaxshi bilish lozim. O'zbekiston Respublikasida turizm infrastrukturasi bugungi holatini o'rganish, sohada mavjud bo'lgan muammolarni tahlil qilish, yuzaga kelgan murakkab ahvoldan chiqish yo'llarini qidirishdan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor xorijiy kapitalni jalb qilishga qaratiladi, shu tariqa turizm uchun xalqaro maydonga chiqish imkoniyati yaratildi.

Xalqaro turizmning o'sib borayotgan obro'si, uning zamonaviy jamiyat hayotidagi o'рни iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyati jahondagi ko'plab mamlakatlarning hukumatlari tomonidan e'tirof etilgan. Xalqaro turizm haqiqatdan ham ulkan istiqbollarga egadir. Turizm, ayniqsa xalqaro turizm, bu davlatning iqtisodiy manfaatlari sohasidir umumiy Yalpi Milliy Mahsulot va valyuta tushumlarining asosiy o'sish manbaiga aylanishi mumkin. O'zbekistonning tarixiy merosi bu yerga turistlarni jalb qilishning eng muhim omillaridan biridir.

3.3.2 – jadval

O'zbekiston turizm sohasining rivojlanishi va bashorati ⁶⁴

	2014-yil mln AQSH dollar	2014-yil YaIMdagi umumiy foizi	2015-yil o'sish darajasi	2015-yil mln AQSH dollar	2025-yil YaIMdagi umumiy foiz	2025-yil o'sish darajasi
YaIMdagi bevosita ulush	570.1	0.9	3.9	1,068.4	0.9	6.1
YaIMdagi umumiy ulushi	1,821.9	3.0	4.7	3,415.4	2.9	6.0
Ishchi kuchidagi bevosita ulushi	118.3	0.8	1.3	174.7	0.8	3.8
Ishchi kuchidagi umumiy ulushi	387.6	2.6	2	568.1	2.5	3.7
Sayyohlik eksporti	226.8	0	-3.8	421.1	0.1	6.8
Ichki turizm tushumi	843.8	1.4	6.3	1,609.8	1.3	6.0
Kapital investitsiya	307.8	2.2	7.3	571.8	2.1	5.6

Jadvaldagi ma'lumotlar Jahon Turizm va Sayohat Kengashining 2015-yilgi nashri asosida tuzildi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan 2014-2015 yillarda sayohat va turizm sohasida asosan o'sish kuzatilganligini bilish mumkin. Bunga sabab, yurtimizda turizm industriyasini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab davlat dasturlari qabul qilindi va ulrning ijrosi ta'minlanmoqda. 2025-yilga berilgan prognozda inflyatsiya darajasini hisobga olingan.

Mamalaktimizdagi turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlar asosan quyidagi viloyatlarni o'z ichiga oladi:

➤ Xorazm viloyati (2016-2017 yillar)

⁶⁴ WTTC Economic Impact Uzbekistan 2015 Edition

- Qashqadaryo viloyati (2013-2015 yillar)
- Toshkent viloyati (2013-2015 yillar)


O'zbekistonda Xorazm viloyati uchun 2016-2017 yillarda turizmni rivojlantirish dasturi qabul qilindi va bu dasturga 86,8 million dollar investitsiya ajratildi. So'ngi 10 yil davomida turistlar soni deyarli 4 barobarga oshdi. Prezidentining farmoniga ko'ra, taxminan 200 ta loyiha amalga oshiriladi va 30 yangi mehmonxona bunyod etiladi. «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi o'quv konsalting markazi viloyat bo'limi tarjimoni sonini oshirish bo'yicha o'z ishini boshladi. Loyihaga ko'ra Xiva, Hazorasp, Urganch tumanlarida va Amudaryo bo'yida ekoturizmni rivojlantirish rejalashtirilgan.

Xorazm viloyatida 2012-yilga nisbatan sayyohlik tashkilotlar soni 36 tadan 49 taga, turistik firma va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 17 taga yetdi. Mehmonxonadago o'rinlar soni 1477 tadan 1967 taga yetdi ya'ni 1,5 barobar oshdi. O'tgan yilda dunyoning 80 dan ortiq davlatidan 41 mingdan ortiq xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurdi. Jami eksport hajmining 31%i turizm sohasiga to'g'ri keldi. Xorijiy sayyohlarning viloyatda qolishi 1,1 sutkadan 1,5 sutkagacha ko'paydi. Bir nafar xorijiy sayyohning o'rtacha xarajati 2012-yilda 80 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda 1 kunlik o'rtacha xarajat 180-200 AQSH dollarini tashkil etmoqda.

**Xorazm viloyati turizm sanoatining 2001-2015 yillarda kelgan sayyohlar soni
va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha o'sish tendensiyasi⁶⁵**

Yillar	Kelgan sayyohlarning jami soni, (mingda)	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, AQSh dollarida (mingda)
2001	45,5	1076,6
2002	36,6	981,0
2003	23,4	716,4
2004	47,3	1097,7
2005	34,7	795,2
2006	31,0	1125,0
2007	42,0	1378,8
2008	45,8	1602,4
2009	47,7	1495,0
2010	49,1	1420,0
2011	55,0	1750,0
2012	63,6	3347,1
2013	73,3	1888,6
2014	67,7	2166,7
2015	63,4	1977,5

3.3.3 jadvalni grafikdagi ifodasi



⁶⁵ “O'zbekturizm” MK Xorazm mintaqaviy bo'limi ma'lumotlari

2016-2020 yillarga tuzilgan o'sish tendensiyasi bashorati⁶⁶

2016	65,0	2011,2
2017	68,0	2160,3
2018	69,0	2212,4
2019	72,0	2376,4
2020	75,0	2552,6

Respublikamizda Qashqadaryo viloyati uchun ham turizmni rivojlantirish dasturi qabul qilindva dastur "2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekturizm ma'lumotlarga ko'ra, dasturni amalga oshirish uchun umumiy xarajatlar 101 million AQSH dollarini tashkil etadi. Mazkur sarmoya davlat va mahalliy byudjetlar mablag'lari, loyiha tashabbuskorlari, xorijiy investitsiyalar, kreditlar va grantlar shuningdek Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirildi. Dasturda Qashqadaryo viloyatining noyob tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va tarixiy yodgorliklarni tiklash, yangi mehmonxonalar qurish, sayyohlik va dam ob'ektlarini rekonstruktsiya qilish, samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek transport infratuzilmasini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2013-2015 yillarda “Toshkent viloyatida turizmni rivojlantirish dasturi” tasdiqlandi va bu dasturning umumiy qiymati 77,8 mln dollarga teng deb baholandi. Ushbu dastur turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va kadrlar tayyorlash chora-tadbirlar o'z ichiga oladi. Shunday qilib, mamalakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining qabul qilinishi mavjud turistik imkoniyatdan oqilona foydalanib, sohani yuksaltirish imkonini beradi.

⁶⁶ “O'zbekturizm” MK Xorazm mintaqaviy bo'limi ma'lumotlari asosida mullif tomonidan tuzildi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro turizm bugungi kunda jahon mamalakatlari iqtisodiyotining yuqori daromad olish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va mintaqalar bo'ylab daromadni mutanosib taqsimlanishini ta'minlovchi yirik sektori hisoblanadi. Ma'lumki, xalqaro turizmni tashkil topishiga asosan savdo-sotiq sabab bo'lgan. Yillar o'tishi bilan insonlarni sayohat qilishga bo'lgan munosabati tobora o'zgarib borgan va natijada xalqaro turizm rivojlanishning to'rt bosqichini bosib o'tgan.

Hozirda jahon mamlakatlarining iqtisodiyotini turizm sektorisiz tasavvur etish qiyin. Xalqaro turizm industriyasi asosan kutib olish, joylashtirish va ovqatlantirish korxonalari, sayr – tomosha bo'limlarining hamkorlikdagi faoliyati natijasi hisoblanib, sohaning yuksalishi zanjirli rivojlanishni taqozo etadi.

Xalqaro turizmning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir etadi, xususan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tabiiy va demografik omillar shular jumlasidandir. Turistik faoliyatni tashkil qilishda har bir mamlakat, xususan O'zbekiston Respublikasi o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yurtimiz yuqori turistik salohiyatga ega bo'lib, asosan tarixiy- madaniy va diniy turizm yo'nalishlarini yaxshi yo'lga qo'ygan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning xuquqiy asosi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlandi va "O'zbekturizm" miliy kompaniyasining tashkil etilishi soha rivojiga zamin yaratdi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilingan bo'lib, har bir turistik mintaq o'zining rivojlanish loyihasini amalga oshirmoqda.

Yurtimizda xalqaro turizmni yuksaltirishni asosiy shartlaridan biri – xalqaro hamkorlikka katta ahamiyat beriladi. Hozirda xalqaro hamkorlik Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash maqsadida asosan Rossiya, Xitoy, Turkmaniston, Tojikiston va Ispaniya davlatlari bilan olib borilmoqda. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlar yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning asosiy manzillari hisoblanadi. Ammo respublikamizda yana ko'plab tarixiy shaharlar bisyor.

O'zbekistonda turizmni sohasini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishga ham alohida e'tibor beriladi. Yurtimizda xalqaro turizmni yuksaltirishda asosan jahonning turistik salohiyat bo'yicha yetakchi mamlakatlari Fransiya, AQSH, Ispaniya va Xitoy tajribalaridan keng qo'llaniladi. Misol uchun, mehmonxonalar faoliyatini yuritish uchun Fransiya modeli, turistik marshrutlarni tuzishda Ispaniya va Xitoy modellari ma'qul ko'riladi.

Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Siyosiy barqarorlik, tabiiy iqlim sharoiti, tarixiy arxitektura yodgorliklari, xilma-xil milliy taomlar va ajoyib milliy an'analar xorijiy sayyohlar e'tiborini tortmoqda. Ammo xalqaro turizm taraqqiyoti darajasini yuqori bosqichga olib chiqish uchun bularning o'zi yetarli emas. Shu bois, yurtimizda mintaqalar turistik salohiyatini oshirishga mo'ljallangan davlat dasturlari amal qilmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy- madaniy va diniy turizm bugungi kundagi respublikamizga uyushtirilayotgan turistik tashriflarning bosh sababidir. Ammo yurtimizda boshqa turdagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishning imkoniyatlari mavjud. Ekoturizm, gastronomik turizm, sport turizmi va sog'lomlashtirish turizm turlarini takomillashtirish orqali xorijiy turistlar oqimini kuchaytirish mumkin.

O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizm industriyasini rivojlantirish chora-tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, turistik aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilmoqda. Xususan turistik mintaqalarda xalqaro aeroportlarning tashkil etilishi va mintaqaning xorijiy sayyohlar tashrifida poytaxtga qaramligini yo'qotish, turoperator va turagentlar sonini oshirish, Yevropaning rivojlangan davlatlarida kadrlar malakasini oshirish va boshqa chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston xalqaro turizm sohasining zamonaviy holatini batafsil tahlil qilgan holda asosan quyidagi xulosalar chiqarildi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasida asosan "3-yosh" vakillarini jalb etuvchi tarixiy-madaniy turizm yaxshi yo'lga qo'yilgan, ammo boshqa turistik yo'nalishlar uchun ham imkoniyatlar bisyor;

- ❖ Bir xildagi turistik mahsulot va past darajadagi diversifikatsiya xorijiy sayyohlar sonini oshirishdagi asosiy to'siqdir;
- ❖ Turistik shaharlararo yo'llar sifatining talabga javob bermasligi xorijiy sayyohlar shikoyatiga sabab bo'lmoqda;
- ❖ Turistik mintaqalar ya'ni Samarqand-Buxoro, Xorazm, Toshkent va Farg'onada charter reyslar kamligi turistik tashriflar sonining kamayishiga olib kelmoqda;
- ❖ Mavsum oylarida oldindan bronlash tufayli ma'lum bir yakka tartibdagi turistlar chiptalar yetishmovchiligi sababli, tanlovlarni o'zgartirishga majbur bo'lmoqdalar;
- ❖ Turistik mintaqalarda turoperator va turagenlik firmalar soninig kamligi va xalqaro bozorda faoliyati cheklanganligi xalqaro turistlar oqimini jalb etishdagi asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga tayanib, respublika doirasida xalqaro turizm salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqarildi:

- O'zbekistonda xalqaro turistlarni jalb qilishda turistik marshrutlar tarkibida turli xil turistik yo'nalishlarni joriy etish;
- Turistik regionlardagi kompleks tarzda joylashgan hududlarda tarixni jonlantirib ko'rsatuvchi animatorlik faoliyatini kuchaytirish;
- Turizm sohasida faoliyat olib boradigan barcha kadrlar doim milliyligimizni aks ettiruvchi liboslar kiyishi;
- Turistik fasl davrini uzaytirish maqsadida turistik mintaqalarda ichki infratuzilmani rivojlantirish;
- Asosan yakka tartibdagi sayyohlar uchun turistik mintaqalararo charter reyslar sonini oshirish;
- Gastronomik turizm tarkibiga kiruvchi "yashil turizm"ni turistik mintaqalarda rivojlantirish. Asosan poliz ekinlari, sabzavot va turli xil meva navlari alohida tam istovchi sayyohlar e'tiborini tortishi aniq;
- Ekoturizm yo'nalishlaridan biri hisoblangan "Safari" O'zbekiston iqlimiga juda mosdir. Turistik mintaqalar yaqinida joylashgan cho'llarda ekzotik

sayohatni tashkil etish uchun mavjud barcha resurs va imkoniyatlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Тошкент: "Ўзбекистон", 1998. - 686 б.
- 1.2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Тошкент: "Ўзбекистон", -2011. - 439 б.
- 1.3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох, этишдир. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2005. - 96 б.
- 1.4. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. //Халқсўзи. - Тошкент, 2006. - 11 феврал.
- 1.5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Т.: "Ўзбекистон", 2009. - 56 б.

2. O'zbekiston Respublikasi qarorlari va farmonlari

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. //Xalq so'zi, 1995.3- iyun.
- 2.2. "Умумий овқатланиш ташкилотларининг фаолиятини янада такомиллаштириш ва ходимларининг касбий даражасини ошириш чора- тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилдаги 289-сонли Қарори
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2008 yil 13 sentabrdagi qonuni "Xalq so'zi" 2008 y
- 2.5. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi qarori
- 2.6. Vazirlar mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi №237–sonli qarori "Xalq so'zi" 2008 y

- 2.7. Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000-y
- 2.8. "O'zbekturizm" MKsining tashkil topishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // "Xalq so'zi", 1992 yil 27 iyul.
- 2.9. "Buyuk Ipak yo'liini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora –tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. // "Xalq so'zi", 1995 yil 3 iyun.
- 2.10. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo'lgan davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 15.04.1999 yildagi PF-№2286 farmoni. //Xalq so'zi, №74. 1999. 16 aprel
- 2.11. "Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 346 sonli 8 avgustda qabul qilingan Farmoyishi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 1998 yil 9 avgust

3. Kitob va turkum nashrlari

- 3.1. Ильина Е. Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2007.
- 3.2. Александрова А. Ю. Международный туризм: Учебное пособие для вузов. М.: Аспект Пресс, 2007.
- 3.3. Квартальнов В.А. "Международный туризм". Учебник. - М, Финансы и статистика. 2007г.
- 3.4. Здоров А. В. Экономика туризма: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2006.
- 3.5. I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R. Tursunova "Turizm asoslari" Toshkent 2008
- 3.6. Mamatqulov X.M, Bektemirov A.B, Norchayev A.N "Xalqaro turizm" darslik Toshkent-2009

- 3.7. Тяпышев О.Г Международный туризм- рост в посткризисный период и перспективы до 2030г
- 3.8. Mansfeld, Y & Pizam A. (Eds) (2006) "Tourism, security and safety" From theory to practice (pp. 139-141) Amsterdam: Elsevier
- 3.9. Биржаков М. Б. Введение в туризм: Учебник. – Издание 7-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Невский Фонд» - «Издательский дом Герда», 2007.

3. Statistik to'plamlar va internet saytlar

- 4.1. The Statistical Annex of the International Monetary Fund World Economic Outlook of April 2015, Page 150, at www.imf.org.
- 4.2. UNWTO Tourism Highlights 2015 Edition
- 4.3. UNWTO May 2015 ma'lumotlari
- 4.4. Tourism Highlights 2015 Edition World
- 4.5. Xalq so'zi gazetasi. 1999 yil. 20 avgust soni.
- 4.6. [www.Anur Tour](http://www.AnurTour.com) (Central Asian Travel Agent)
- 4.7. "O'zbekturizm" MK matbuot xizmati
- 4.8. Manba Uza.uz (Navoiy vlioyati statistika boshqarmasi)
- 4.9. TOURFAIR.UZ News Uzbekistan at the tourism fair FITUR - 2015
- 4.10. www.Uzreport.Axborot agentligi 09.12.14
- 4.11. WEF. (2015). The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015: Growth through shocks. (<http://www.weforum.org/reports/travel-tourism-competitiveness-report-2015>)
- 4.12. UNWTO. (2015). World tourism barometer – 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)
- 4.13. UNWTO. (2011). Tourism towards 2030: Global overview. (<http://publications.u/nwto.org>)
- 4.14. WDI database hamda WEFning "The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015" ma'lumotlari asosida
- 4.15. www.BPK.UZ 12/2015. ISSN 2010-6580

- 4.16. World Travel&Tourism Council. Economic Impact 2015 Uzbekistan
- 4.17. Xarita O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat ko‘mitasi muttaxassislari tomonidan tuzilgan.
- 4.18. “O‘zbekturizm” MK ma’lumotlari(2014-yil yanvar oyi sonidagi)
- 4.19. www.wttc.org – Всемирный Совет по путешествиям и туризму. 2007